Yuqoridaagi sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent. 1993-yil.
2. Qilichev E, Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslibiyat asoslari. Buxoro. 2002-yil.
3. Rasulov R, Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati. Toshkent. 2004-yil.
4. www.arxiv.uz



THE USE OF DESIGN WORK IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE IN ENGLISH CLASSES

Boltaboeva Nodira Salimovna

English teacher of Tashkent region,

Angren city, vocational school № 1

Telephone: +99893 588 19 77

Abstract: This article focuses on the study of foreign languages in our country, and as a result, a great deal of attention is paid to the development of English language and gives the younger generation plenty of opportunities for good communication in foreign languages.

Key words: education, foreign languages, educational institution, knowledge, students, historical places, communication, foreign people, English, French, German, Japanese, Korean, Russian.

In the education of a harmoniously developed generation, along with their native language, foreign languages are of great importance. Learning English, French, German, Japanese, Korean, Russian and other languages serves as a bridge between peoples. The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the system of studying foreign languages" substantiated the relevance and importance of knowledge of foreign languages in the world community.

Learning foreign languages is very vital in education places . From the 2015-2016 academic years, a foreign language is introduced into the block of entrance tests in higher educational institutions, which increases the responsibility of teachers of academic lyceums and professional colleges. The teachers of our country have an important task - the development of new optimal teaching and learning complexes for teaching English.

In recent years, foreign language teachers have gained considerable independence in the choice of teaching aids, creative understanding of the content and ways of implementing program requirements. The greatest interest in lyceums and colleges, in our opinion, is the analysis of the so-called project work, as well as tasks, exercises that are interactive in nature (aimed at the interaction of students).

Project work is a work independently planned and implemented by students, in which speech communication is organically work into the intellectual and emotional context of other activities (games, questionnaires, issues of the magazine, search activities, etc.).

Thus, it allows one to realize inter-subject relationships in teaching a foreign language, expand the "narrow space" of communication in a group, and make extensive reliance on practical activities. Work on a project is a creative process. By the help of this activity students feel responsibility doing on their activities .

Students, interacting with each other, are engaged in the search for a solution to a problem that is personally significant for them. This requires students in the vast majority of cases to independently transfer knowledge, skills and abilities to the new context of their use. Therefore, it is safe to say that students develop creative competence as an indicator of communicative knowledge of a foreign language at a certain level. At the same time, in the educational process, a situation is created in which students use a foreign language is natural and free, such as it appears in their native language

- selection and wording of the project topic, collection of information;
- discussion of the first results and refinement (discussion) of the final results of the work, the search for new, additional information in various operating modes (individual, paired, group);
- discussion, i.e. discussion of new information and its documentation (design); Summing up and presentation of the project.

The number of steps - stages from the adoption of a project idea to its presentation depends on the degree of its complexity. Step by step, from lesson to lesson, independently or under the guidance of a teacher, performing certain tasks, students collect the necessary information, discuss and fill it out.

To collect information, students must go "outside" the group (to the library, to the Internet, etc.), be active and independent, and have the ability to communicate with other people. It gives great



impression to students and they want to work with great interest.

Each group informs others about the information collected (speaking, listening), receives new impulses from its friends for further search (discussion, argumentation), discusses how this information can be formalized or documented (speaking, reading, writing). The teacher helps students with his advice, if the students have any difficulties while doing processes and also participates in the discussion of intermediate results, asking questions, expressing his wishes, etc.

For example : students can take video at sight sing and historical places according to their topic , may be they can communicate with foreign people .

The use of project work forms students' social competence (the ability to act independently in social situations), develops a sense of responsibility for the final result, the ability to speak publicly in order to make a presentation of this result convincingly and reasonably. Introduction to the practice of lyceums project methods allows us to talk about a new pedagogical technology of interactive mutual learning, which allows us to solve the problems of a personality-oriented approach in learning. Thus, based on the foregoing, it can be argued that the project work gives the learning process a personality-oriented and active character and fully meets the new learning goals.

To conclude , the usage of the design work in teaching foreign language is very important and interesting task for students. Design work tasks can give a lot knowledge and experience for students and they can develop and increase their level on all integrated skills without any difficulties.

References:

1. Galkova N.D. Modern methods of teaching a foreign language - M ARKTI, 2004 year.
2. Koryavseva N.F. Modern methodology for organizing independent robots for learning a foreign language. M ARKTi, 2002 year.



INTEGRATION OF MODERN PEDAGOGICAL METHODS IN LESSONS OF A FOREIGN LANGUAGE IN A MODERN SCHOOL

Boltayeva Sarvinoz Sattorovna

An English Teacher of the secondary school #27
Navai, Kyzyltepa

Abstract: Since the advent of intensive methods of studying foreign languages and potential and feasibility are still being discussed their use in regular school. Intensive methods take up a specific place at each stage of teaching foreign languages in secondary school: at the initial, secondary, senior stages.

Keywords: integration, teamwork, simulations of intensive methods

Accelerated methods allow you to take a fresh look at methods of teaching foreign languages at school, intensify processes of perception and mastering the basics of communication and increase teamwork performance. It is important to say that the use of intensive methods in the medium Schooling can be challenging for several reasons. To such Reasons include, for example, technical problems associated with the complexity of the equipment of a special room for classes, as well as lack of a specially trained specialist.

Classroom this focus should be equipped with appropriate lighting, soft chairs in a semicircle, two tape recorders, projector, etc. For a comprehensive school it would be very difficult technical equipment of this type of room.

Consequently, regarding secondary school, it's more correct to talk about integration into the process of teaching foreign languages elements intensive techniques. Based on the theoretical foundations and analysis of school books "Spotlight", as well as manuals for this tutorial, you can highlight the following types of exercises:

Exercise 1: "Imitation."

The purpose of imitation is the involuntary memorization of speech models text. Maximum results are achieved by acting on the principle of "From simple to complex", i.e. first of all, memorization of words follows studied topic, and then, the transition from a learned word to combinations of words and suggestions. Before starting work, the settings are voiced in Russian and in foreign languages: Look at me! Listen to me! Repeat with facial expressions and intonation, like mine! Then the words are pronounced by the teacher (speaker) in a foreign language and in Russian several times (depending on complexity), and students chorus repeat. They need to repeat the facial expressions and intonation of the teacher or announcer (or maybe surpass it).

The emotional state can be expressed in many ways: pronouncing lexical units with surprise, sadness, indignation, smiles, joy, pride. Some words can be pronounced chant. A variety of spectra is used to avoid monotony. paralinguistic means: intonation, facial expressions, rhyme, rhythm, gestures.

An example is the exercise to learn new vocabulary in Spotlight textbooks, where all the above techniques apply (exercise 1, page 40; exercise 2, page 46; exercise 1, page 73 and others [5, pp. 40-73].

Exercise 2: Rhyming.

The purpose of using rhymes is the involuntary memorization of speech text patterns. The peculiarity of pronouncing a poetic text with By "chasing out" each word and at a set fast pace leads to direct unconscious memorization of information.

Intensive training has long been formed in practice and is perceived by most educators as a kind of system training, which differs in a number of parameters from teaching methods foreign languages currently used. As part of this training, new principles of selection and organization of speech and language material, a new dynamic model of training and management of communicative and educational activities students. The practical use of a set of exercises that contains elements of an intensive technique, reveals an increase in efficiency learning, which is due to the activation of the subconscious sphere along with conscious, in addition, there is an increased level of memorization vocabulary and increased motivation to learn a foreign language. Variety of types of exercises, audiovisual opportunities provide increased emotional mood, productive desires work and create



a friendly atmosphere throughout the lesson. Motor and speech involvement of all participants in educational process makes the lesson more lively, helps to remove tension in the educational process and emotional discharge.

References:

1. Elukhina, N.V. On incorporating elements of intensive learning into teaching a foreign language in high school
2. N.V. Elukhina //Foreign languages at school: a scientific and methodological journal. - No. 6. - 1990. -S. 6 - 12.
3. Kitaygorodskaya, G.A. Intensive Methodological Basics teaching foreign languages [Monograph] / G.A. Kitaygorodskaya
4. R.S. Nemov, T.N. Smirnova. - M.: Publishing house of Moscow University, 1986. - 175 p.
5. Kitaygorodskaya, G.A. Intensive Learning Technique foreign languages [Text] / G.A. Kitaygorodskaya. - M, 1986. - 302c.



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISH

Ishanova Barno Baxadirovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
15-maktabning biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida biologiya darslarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif, pedagogika, o'quvchi, o'qituvchi, dars, yosh avlod, biologiya, tushunchalar tahlili.

Ta'lif samaradorligini oshirish, o'quvchilarni bilim salohiyatining rivojlanishida interfaol usullardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Dars jarayonida o'quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to'g'ri va maqsadli foydalanish, har bir o'tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta'riflarni o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi. O'quvchilar ongida saqlanib qoladi va ularning mustaqil fikrlashga undaydi. Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham asosan yosh avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqgan dars samaradorligini oshiradigan pedagogik texnologiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Tushunchalar tahlili metodi – o'tilgan o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularni o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Ushbu metodni biologiya darslarida keng qo'llash mumkin.

Tushuncha	Mazmuni
Hujayra	
To'qima	
Organ	
O'rganizm	
Malekula	

Charxpalak metodi – ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi – o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- 1) O'quvchilarni guruhlarga ajratish;
- 2) O'quvchi mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- 3) Tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
- 4) Har bir guruh a'zosi tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- 5) Har bir guruh a'zosi o'zi ishlatgan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- 6) Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga charxpalak aylanmasi yo'nalishida almashtiriladi;
- 7) Yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- 8) Har bir guruh a'zosining o'zlarini belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini



taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;

9) Har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Charxpalak texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin. Vazifa uchun zarur bo'lgan tarqatma materiallardan misollar keltiramiz.

I-tarqatma

T/r	O'simlik turlari	Gulli o'simliklarning hayotiy shakllari			
		Daraxt	Buta	Yarim buta	O'tlar
1	Qarag'ay	+			
2	Izen			+	
3	Zirk		+		
4	Sachratqi				+
5	Na'matak		+		
6	Machin				+
7	Yalpiz				+

2-tarqatma

T/r	Hayvon turlari	Sut emizuvchilar sinfi			
		Kemiruvchilar	Yirtqich sутемизувчилар	Dengiz sутемизувчилари	Tuyoqli sутемизувчилар
1	Kashalot			+	
2	Ondatra	+			
3	Tarpan				+
4	Arslon		+		
5	Ko'k kit			+	
6	Ko'k sug'ur	+			
7	Bo'ri		+		

Venn diagrammasi – ikki va uch jihatlarini hamda umumiylarini solishtirish yoki taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanadir. Undan foydalanish bosqichlari quyidagilar:

- o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi;
- plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo'yiladi;
- har bir to'g'ri fikrga qo'yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;
- qo'yilgan topshiriq bo'yicha guruhlarning har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlari bir o'quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flomasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib yuboriladi;
- fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida to'g'ri va noto'g'ri javoblar aniqlanadi.

Bioliyga darslari jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati shundaki, o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadi. Bu metodlar bilan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasi oshib boradi. Dars jarayonida o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi muhimdir. Mavzuni turli xil yangi pedagogik texnologiyalar yordamida tushuntirish o'quvchilarni dars jarayonida faol bo'lishga undaydi. O'quvchining anglash qobiliyati va o'qitishning samaradorligini oshirish uchun bioliyga darslarini didaktik usullar bilan boyitish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekistonning o'simliklar dunyosi. T.: O'qituvchi, 1997.
2. J.Tolipova. Bioliyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent 2004.
3. N.A.Yunusova, F.A.Botirova. Bioliyga fanini o'qitishda pedagogic texnologiyalardan foydalanish. Samarqand 2014.



БОШЛАГИЧ СИНФЛАРДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АЛГОРИТМЛАШТИРИШДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ МЕТОДИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Каримова Нилуфар Худайбердиевна

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчи

97.703 16 60

Аннотация. В статье обсуждаются вопросы алгоритмизации процесса обучения младших школьников. Предлагаются комплексные дидактические пути применения алгоритмов на уроках математики.

The summary. In this article discussed are questions of algorithmization of process of training of younger schoolboys. Offered are complex didactic ways of application of algorithms at the lessons of mathematics.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда таълимни ислоҳ қилишда, миллий мустақиллик принциплари ва халқимизнинг бой интеллектуал мероси, умумбашарий қадриятларнинг устиворлиги асосида таълимнинг барча жабҳаларида олиб борилаётган катта ўзгаришлар педагогика, хусусан математика ўқитиш методикаси фани олдига ҳам катта вазифалар қўймоқда. Шундай вазифалардан бири фанларни ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг билимлари, амалий кўникума ва малакаларини шакллантириш, ҳамда ва чукурлаштиришнинг методик масалаларини тадқиқ қилишдан иборат.

Биз ушбу мақоламиз орқали бошланғич синфлардаги математикани ўқитиш жараёнида алгоритмлаштиришдан фойдаланишнинг баъзи бир методик хусусиятлари ҳақида фикр юритмоқчимиз.

Методика фанининг муҳим вазифаларидан бири дастур асосида ўқувчиларга элементар математик билимлар системасини бериш, таълим жараёнини режалаштиришни такомиллаштириш ва ўқувчиларнинг мантиқий билиш фаолиятларини шакллантириш самарадорлигини оширишдан иборат. Мана шу мақсадларни амалга оширувчи методлардан бири таълим жараёнида алгоритмлардан фойдаланишдан иборатdir.

Бу масала билан П. Я. Гальперин, Л. Н. Ланда, Н. Ф. Талызина каби йирик олимлар шуғулланганлар ва ўзларининг ишлари, ҳамда тадқиқотларида таълим жараёнида алгоритмлардан фойдаланишнинг самарали методлардан бири эканлигини ўзларининг илмий методик ишларида исботлаганлар.

Таълимнинг, хусусан бошланғич таълимнинг асосий вазифаларидан бири, ўқувчиларни келгусида кундалик ҳаётда учрайдиган турли назарий ва амалий характердаги масалаларни ечишга тайёрлашдан иборат. Шу мақсадда ўқувчиларда мантиқий фикрлаш фаолиятларини шакллантириш, уларни ҳар қандай вазифага илмий методик нуқтаи назардан асосланган ҳолдаги ёндошув усусларидан фойдаланиб ҳаракат қилишга ўргатиш керак. Алгоритм - нафақат ақлий, балки умуман олганда фаолият кўрсатишнинг умумий методларидан биридир дейишимиз мумкин.

Шу ўринда таълим жараёнини алгоритмлаштиришни икки хил йўналишда тушуниш кераклигини таъкидлаймиз.

Булардан бири ўқитишнинг ўзини алгоритмлаштириш, ўқитувчининг ўқитиш алгоритмларини тузиш ва улардан фойдаланиш билан кечадиган фаолиятидан иборат бўлса, иккинчиси ўқувчилар фаолиятини алгоритмлаштириш, уларни алгоритмлардан фойдаланиш ва алгоритмларни тузишга ўргатишдан иборат.

Биз таълим жараёнини бутунича алгоритмларга ўтказиш мақсадга мувофиқ бўлади деган фикрдан йироқ бўлган ҳолда, ўқувчилар фаолиятини алгоритмлаштириш, уларнинг фикрлаш қобилиятларини шакллантиришда алгоритмларнинг роли ҳақида сўз юритамиз.

Маълум маънода математик масалани ечиш, шу турдаги кўплаб масалаларни ечишнинг умумий методини, алгоритмини қуриш деб баҳоланиши мумкин. Шу билан бирга, биз масалани ечишда, бизга олдиндан маълум бўлган бир неча алгоритмлардан бевосита ёки билвосита фойдаланамиз. Шу нуқтаи-назардан қараганда кўплаб алгоритмларни билиш ва



улар ёрдамида янги алгоритмларни қура билиш малакасини шакллантиришдан иборатdir. билимлар системасини ташкилловчиларидан биридир.

Ўқувчиларни алгоритмларга ўргатишида бир неча дидактик йўллардан фойдаланиш мумкин. Хусусан:

- Ўқувчиларга ўқитувчи томонидан алгоритмни тайёр ҳолда бериш;
- Ўқувчилар кўйилган топшириқни бажариб, натижани оладиган алгоритмни ўзлари мустақил ёки ўқитувчи ёрдамида тузишлари;
- Ўқитувчи томонидан топшириқни ечиш алгоритми олдиндан маълум бўлган майдароқ бўлакчаларга бўлиб олиш имкони бўлган топшириқлардан иборат бўлган машқлар системасини тузилиши ва уларни ўқувчиларга тақдим этилиши.

- Ўқитувчи томонидан наъмуна сифатида ечиб кўрсатиладиган машқларда ўқувчиларнинг эътиборини илгари уларга маълум бўлган ва шу машқни ечиш жараёнида ишлатилган алгоритмларга қаратиш, машқни ечиш давомида ишлатилаётган алгоритмларга алоҳида урғу бериб кетиш.

Фикримизча, мана шу санаб ўтилган дидактик йўллардан комплекс равишида фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Айниқса, кейинги саналган учта ҳолатда масалани алгоритмлаш, яъни масалани ечишда алгоритмлардан фойдаланиш ва янги алгоритмни ўқувчилар томонидан мустақил равишида қурилиши эвристик, дедуктив ва умумлаштириш методлари билан боғланиб кетади. Бу эса дарс самарадорлигининг ошириш, ўқувчиларнинг билимлари, амалий кўнікма ва малакаларини шакллантириш, ҳамда уларни чуқурлаштиришнинг муҳим методик омилларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. / М., 1995.
2. Талызина Н.Ф. Формирование познавательной деятельности младших школьников. / М., 2002.
3. Алихонов С. Математика ўқитиши методикаси. / Т., 2008.



TARIX FANINI O'QITISH METODLARI VA ULARNING KLASIFIKATSIYASI

Ochilova Ozoda Ulmasovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 146-maktabning
tarix hamda davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar va ularning klasifikatsiyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif jarayoni, dunyoqarsh, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lif metodlari.

O'qitish metodi deganda, ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

Endilikda, ta'lif mazmuni insoniyat to'mangan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'lifning rivojlanish prinsiplariga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lif mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim rol o'ynaydi.

O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klasifikatsiyalash tavsiya qilinadi.

Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiyligi xarakteriga taalluqlidir.

O'tgan asrning 60-yillarida tarix o'qitish metodlari va ularni klasifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev "Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lif-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi" – deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlika yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi:

- 1) tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- 2) xronologiyani o'rganish metodlari;
- 3) mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- 4) asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- 5) sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari;
- 6) tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

Ma'lumki, tarix o'qitish – o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Metodist A.I.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko'rinish turibdiki, u faqat o'qituvchining o'quvchilarning o'qitishini ko'zda tutadi, o'quvchilarning o'rganishini tashkil etish va ularning o'rganishiga o'qituvchining rahbarlik qismini e'tiborga olmaydi.

Ko'zga ko'ringan metodist V.G.Kartsev bu masalada boshqacha yo'l tutadi. U metodlar sistemasiga o'quv xarakteriga ega bo'lgan belgilar (Bayon qilish metodi, so'rash metodi) va umumiyligi didaktik vazifalar (materialni o'rganish metodi, mustahkamlash metodi, bilimni tekshirish metodi va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarning tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. Metodlar haqidagi nazariyaning metodologiyasi asosini, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tasavvurga va undan amaliyatga o'tish tashkil etadi. Binobarin, deb – hisoblaydi V.G.Kartsev, - o'quvchilarda tarixiy tasavvur va tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari haqidagi masala metodikaning markaziy masalasi bo'lishi kerak. Shu asosda, u o'quvchilarda tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning 4 guruhi borligini aytadi:

- 1) tarixiy tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- 2) umumiyligi tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- 3) vaqt va fazoda tarixiy rivojlanish dialektikasini ochib berish metodlari;
- 4) tarixni zamonaliviy voqealar bilan bog'lash metodlari;
- 5) tarixiy bilimlarning hayot va amaliyotda qo'llanilishi.



50 – yillarning oxirilariga kelib tarix o‘qitish metodikasida ham o‘qitish metodlari klasifikatsiyasiga o‘quvchilarning bilish manbalari asos qilib olma boshlandi. Metodist P.S.Leybengrub ta’lim manbalari, ya’ni bilish manbalari asosida o‘rtta ta’lim tizimida tarix fanini o‘qitishning quyidagi metodlarni ko‘rsatadi:

- 1) hikoya metodi;
- 2) suhbat metodi;
- 3) ko‘rsatmali metod;
- 4) darslik bilan ishslash metodi;
- 5) tarixiy hujjatlar bilan ishslash metodi;
- 6) badiiy adabiyotlardan foydalanish metodi.

P.S.Leybengrub nimagadir, og‘zaki bayon qilish metodlarining hammasini hikoya va ma’ruzadan iborat qilib qo‘yadi. A.Vagin o‘zining tarix o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan kitobida ana shu kamchilikni to‘ldiradi. A.Vagin tarix o‘qitish metodlari klasifikatsiyasiga bilim olish manbalari bilan birga, bilim olish usulini ham asos qilib oladi. U o‘qitish metodlarini quyidagi 3 guruhga bo‘ladi:

- 1) jonli so‘z: hikoya, tavsiflash, xarakteristika, muammoli bayon;
- 2) ko‘rsatmali metodlar: rasmi va boshqa ko‘rsatmali qurollar, doskaga chiziladigan grafik yozuvlar, texnika vositalari va boshqalar.
- 3) matnlar bilan ishslash metodlari.

A.Vagin o‘qitish metodlari klasifikatsiyasiga bilim manbalari va bilish usullarini asos qilib olish bilan birga, bilish manbalari didaktik vazifalariga muvofiq o‘qitish jarayonining asosiy bosqichlarida ta’rif qayta amalga oshirilishini jadval shaklida beradi. Bu jadval har bir darsda o‘tilgan materialning mazmuniga qarab o‘qitishning turli xil metod va usullaridan foydalanish zarurligini aniq ko‘rsatadi. Keyingi yillarda o‘rtta ta’lim tizimida tarix o‘qitish tajribasi A.Vagin tavsiya etgan o‘qitish metodlarining juda real ekanligini ko‘rsatadi.

O‘qitishning metod va usullarini tanlashda shuni nazarda tutmoq kerakki, o‘quvchilar esda saqlab qolishi zarur bo‘lgan bilimlarni shunchaki bayon qilib qo‘ya qolish bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, o‘rgatish ham lozim. Ularda mustaqil ijodiy izlanish, yangilikka intilishni kuchaytirish, hali jamiyatga ma’lum bo‘lmagan bilish usullarini qidirib topish va amaliy faoliyatga joriy eta bilish qobiliyatini ham rivojlantirish kerak.

I.Ya.Lerner o‘qitish metodlarini 5 guruhga bo‘ladi:

- 1) Bayon – illyustratsiya metodi;
- 2) Repraduktiv metod;
- 3) Ilmiy – tadqiqot metodi;
- 4) Qisman izlanish yoki evristik metod;
- 5) Muammoli ta’lim.

Ta’lim – tarbiya jarayonida bu usullarning barchasi va bilimlarning barcha tarkibiy qismlari bir – biri bilan o‘zaro bog‘langan holda ishtirot etadi. Metodik usullarni tanlash o‘quv materialining xarakteri bilan bog‘liqligini, u yoki bu tarixiy materialni o‘rganishga qanday usullardan foydalanish kerakligini bilish bilan birga ularni o‘quvchilarning bilimi va bilish malakalariga muvofiq tarzda qo‘llash mahoratini ham egallashi kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati

1. J.Rahimov. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. T.: O‘qituvchi, 1995.

2. Hamroyeva S.I. Tarix o‘qitish metodikasi. Navoiy, 2015.



BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TILIDA DARSLARIDA SO'Z TURKUMLARINING O'RGAТИSH

O'roqova Gavhar Samandarova
Yandasheva Dilnoza Baxtiyor qizi
Navoiy viloyati Karmana tumani
24- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'tishda qo'llaniladigan ba'zi bir usullar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlari: Boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, Ot, Sifat, Son.

Boshlang'ich sinflarda o'tkazilgan dars mashg'ulotlari o'zgachaligi bilan farq qiladi. Bu bosqich o'quvchilari darsga ajratilgan 45 daqiqa vaqtini bir maromda o'tkazishga tayyor bo'lmaydilar. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar iloji boricha o'quvchilar zerikib qolmasliklarini nazorat qilishlari talab etiladi. Bu sohada tajribasi katta bo'lgan o'qituvchilar bunday hollarning oldini olish uchun darsni qismlarga bo'lishadi va o'qishdagi bir xillikdan qochishga erishishga harakat qiladi. Boshlang'ich sinflarda, asosan, quyidagi fanlar o'tiladi: *O'qish va Yozish, Matematika, Tabiatshunoslik, Jismoniy tarbiya, Rasm darsi*. Ko'rib turganimizdek, darslarning turi ko'p emas. Bu esa o'quvchilarning diqqatini ushlab turishda ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shunday paytlarda o'qitishning o'zgacha usullarini qo'llay bilish juda muhimdir. Boshlang'ich sinflarda keng tarqalgan usullardan biri bu o'yinlardir. O'yinlarni har qanday dars turida qo'llanishi mumkinligi ahamiyatga molikdir.

Ona tili darslarida o'qituvchi bolalarga "**Ot**" so'z turkumini tushuntirayotgan paytda turli o'yinchoqlarni namoyish qilgan holda, ularning nomlanishini aytib, shu orqali o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkaza olishi mumkin. Aynan shu maqsadda hayvonlar, ertak qahramonlarining suratlarini ko'rsatish va o'quvchilardan ularning nomini aytib o'tishni so'rashi mumkin. O'quvchi bu topshiriqni mustaqil bajarish orqali dasturda ko'zda tutilgan maqsadga erishishi mumkin. Bunda o'yin elementlari qo'shilganda, o'quvchini o'quv materiallarini qabul qilishi yengillashadi. Keyinchalik ham bu masalada ikkilanish yuzaga kelganda o'quvchi ko'z oldiga o'sha dars jarayonida ko'rgan narsalarini keltiradi va natijada bu masalada xatolikka yo'l qo'ymaydi.

"Ot" so'z turkumidan tashqari, "Sifat" so'z turkumining o'ziga xos jihatlarini tushuntirish uchun ham turli buyumlar, ertak qahramonlari va jonivorlar tasvirlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan: ertak qahramonlarini olsak. Bolalar bu yoshda ertaklarga juda qiziqadigan bo'ladilar. Ularning har birining o'z sevimli ertagi va shu ertak ichida eng yoqtirgan qahramoni bo'ladi. "Sifat" so'z turkumining *qanday?*, *qanaqa?* so'roqlarini tushuntirishi uchun o'qituvchi shu qahramonlar suratini o'quvchilarga ko'rsatadi. U o'quvchilardan suratni tasvirlab berishni so'raydi. O'qituvchi shundan keyin suratda tasvirlangan qahramonning tashqi ko'rinishi haqida to'xtab o'tadi va o'quvchilardan uni tasvirlab berishni so'raydi. O'quvchilar jo'r bo'lgan holda yoki yakka-yakka, navbat bilan rasmdagi bir sifatni aytadilar. O'qituvchi esa ularning aytaganlari orasidan sifat so'z turkumining *qanday?* *qanaqa?* so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlarni doskaga yozib boradi.

Ona tili darslarida boshqa so'z turkumlarini ham ko'rib chiqish mumkin. "Son" so'z turkumini tushuntirishda turli narsa buyumlarning miqdorini tushuntirishga harakat qilish lozim bo'ladi. "Son" so'z turkumiga oid so'roqni doskaga yozadi *qancha? nechta?* so'roqlari bilan tanishtirgach, o'qituvchi ularga ikkita ko'rgazmani ko'rsatadi, ularda, aytaylik birida bitta meva surati, ikkinchisida esa aynan shu mevaning ko'plikdagi rasmi tasvirlangan bo'ladi. Misol keltirishda mevalardan boshqa buyumlarni ko'rsatish mumkin. Ularga nisbatan so'roq beriladi - *nechta meva bor?* Suratdagi miqdorga qarab, o'quvchilar javobni aytadilar. Buning natijasida o'quvchilar ushbu turkum haqidagi ma'lumotlarni to'liq o'zlashtirishga erishadilar.

Xulosa o'mida, Yuqorida ta'kidlangan tavsiyalarning natijali bo'lishida boshlang'ich ta'lim mifikalarining dasturlari mazmuniga aniq yo'nalishlar kiritilishi lozim. O'qituvchilar «Ona tili» darsliklari dasturidan o'quvchilarga bilim berishda va tarbiyalashda keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: 1995
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: 2009
3. Ikromova R. va boshq. Ona tili 4-sinf uchun darslik. – T.: 2009



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Quryozov Farhod Rahimovich
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boslang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail: nasiba.xalmuratova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda boslang‘ich sinf o‘quvchilariga yangi zamonaviy pedagogik texnologiya va didaktik o‘yinlardan foydalangan holda kompetensiyaviy bilim berish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, nutq, pauza, texnologiya, intonatsiya, janr, badiiy asar, tahlil qilish, didaktik o‘yin,

Ta’lim tizimida bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar har bir fan o‘qituvchisini faollikka, pedagogika sohasidagi yangiliklardan boxabar bo‘lishga va har bir dars jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda kompetensiyaviy ta’lim berishga undaydi.

Boslang‘ich sinflarda ifodali o‘qish metodikasida o‘quvchilarning nutq texnikasi: nafas olish, ovoz diksiya; nutq logikasi: pauza, urg‘u, ohang va intonatsiyalarga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, 2-sinf “O‘qish kitobi” da keltirilgan Umarali Qurbonovning “Onam” she’rini ifodali o‘qishga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga nafaqat she’rdagi so‘zlar urg‘usi, ohang va intonatsiyasi, balki ushbu so‘zlarning mazmuni va mohiyatini tahlil qilish orqali ularning qalbida oila a’zolariga g‘amxo‘rlik , mehr-oqibatlilik va mas‘uliyat hissi singdirib boriladi. Ifodali o‘qish musobaqasini o‘tkazish asnosida o‘quvchilarda bir-birini tinglash va hurmat qilish tuyg‘ulari shakllantirib boriladi.

Boslang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda badiiy asarlar ustida ishslash katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1.Badiiy asar mazmuni bilan tanishtirish.

2.Asar mazmunini uning xususiyatlari bilan birgalikda tahlil qilish.

Tahlil qilish jarayonida matn ustida ishslashning turlicha usullaridan foydalanish mumkin. Masalan, to‘g‘ri sarlavha tanlash, topshiriqqa mos qismini o‘qish, savollarga o‘z so‘zi bilan javob berish, asar rejasini tuzish, qaysi janrga (ertak janri, masal janri, she’riy janr, hikoya janri, doston janri, maqol janridagi asar) mansubligini aniqlash va boshqalar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirish uchun ularning yosh xususiyatlari va aqliy aktivligiga mos ravishda kompetensiyaviy ta’lim berishda didaktik o‘yinlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Funksional o‘yinlar. Bu o‘yinlar bola organizmining har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.Unda bolalar nima bilandir shug‘ullanadi, turli predmetlar bilan tanishadi.

2. Qoidalı o‘yinlar. Bu o‘yinda o‘quvchilar tevarak-atrof va muhitdagi voqealardan xabar topib idrok etish bilan kifoyalanadi.

3. Rolli o‘yinlar. Bu o‘yinda o‘quvchilar o‘ziga tegishli (shifokor,quruvchi, o‘qituvchi, biznesmen kabi) vazifasini bajarayotgandek his etadilar va rolni muvaffaqiyatli bajarishga intiladilar.

4. Qarsak o‘yini. Ushbu o‘yinni turlicha tashkil qilish mumkin. Masalan, o‘qituvchi o‘tilgan mavzu yuzasidan har bir bolaga tarqatmalarda bitta to‘g‘ri yo xato yozilgan gaplarni o‘qitadi, boshqalari tinglab to‘g‘ri bo‘lsa ikki marta, xato bo‘lsa bir marta qarsak chaladi. To‘g‘ri bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Adabiyotlar:

1. Pedagogik texnologiya asoslari.J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov.Toshkent.2004.
2. Ta’lim-tarbiya nazariyasи va metodikasi (boslang‘ich ta’lim).
3. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent. 2018.



PEDAGOGIK MULOQOT - O'QITUVCHINING IJODIY FAOLIYATI SIFATIDA

Raximov Fazliddin Usmonovich

Navoiy viloyati Karmana tumani 4-umumiy
o'rta ta'lif maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi Telefon raqami:

Raximova Dilafro'z Istamovna

Navoiy viloyati Karmana tumani 4-umumiy
o'rta ta'lif maktabi informatika fani o'qituvchisi Telefon raqami:

Annotatsiya. O'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lif-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir.

Kalit so'zlar. Pedagogik-psixologik, kommunikativ, metodika, A.N.Leontev, tarbiyaviy-didaktik, ijtimoiy-psixologik, A.S.Makarenko, V.A. Suxomlinskiy.

Pedagogik-psixologik yo'naliishlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, o'qituvchilarning sermehsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyat to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar yuritilgan. O'qituvchi o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchilarga nisbatan mehr-muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'n muloqot qila olish qobiliyat, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o'qituvchini integral fanlar asoslarini va o'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqu bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqoti, ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi. Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo'lgan muloqot har qanday kasbiy faoliyatning barcha turlarida mavjud. Biroq bir xato kasb egalarida (chunonchi, pedagog, shifokor, san'atkor va hokazo) kasbiy faoliyatga shunchaki hamroh bo'lgan oddiy omil emas, balki kasbiy ahamiyat kasb etadigan, uning asosini tashkil etadigan muhim kategoriya sanaladi. Bu holda muloqot insonlar o'rtasidagi odatiy o'zaro hamkorlik shakli emas, balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi kategoriya sifatida mavjuddir. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda muloqot muhim funksional, o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o'zaro ta'lif va tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida namoyon bo'ladiki, bunda muloqotning muhim shartlariga va qonuniyatlariga, qo'shimcha vazifalariga rioya qilishga to'g'ri keladi. Tajribalar shuni ko'rsatadi, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o'zaro hamkorlik tizimida muloqot go'yo, shunchaki o'z o'zicha sodir bo'ladi. Ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lif-tarbiyaviy jarayonda esa, muloqot ijtimoiy vazifaga aylanadi, natijada o'qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo'lishi talab qilinadi. Odatiy va kasbiy kommunikativ vaziyatni qiyoslab ko'ramiz. Aytaylik, do'stingizga nimanidir gapirib berayapsiz. Masalan, biror ko'rgan filmingiz to'g'risida, uning mazmun va g'oyasini bemalol so'zlayapsiz. Bu holda muloqotning turmushda ro'y beradigan odatiy kommunikativ shaklidagi shaxsga yo'naltirilgan tizimi bilan ish ko'rgan bo'lasiz. Tasavvur qiling Sizga shu vazifani auditoriyada, minbarda turib, o'quvchilar oldiga chiqib gapirib berish taklif etildi. Siz kommunikatsiyani amalga oshirish vazifasini, avvalo, muloqotning tabiiy shakkari o'rniga kasbiy-funksional javobgarlik hissini, ya'ni kasbiy jihatdan anchagina murakkablashgan pedagogik faoliyatni darhol his etasiz. Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, o'qituvchi va ta'lif-tarbiya jarayoni obyektlarining o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. O'qituvchi bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi. A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot - o'qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lif-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsiyonal muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga



solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir. Pedagogik faoliyatda muloqot o'quvchilarga zamon talablar asosida ta'limg'or berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Ilg'or pedagogik tajribalarni tahlili hamda taniqli olimlar A.S.Maka Renko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalarning pedagogik faoliyatini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, aynan o'quvchilar bilan o'qituvchi muloqotining pedagogik ta'sir vositasi nihoyatda beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta'limg'or-tarbiya jarayonining samaradorligin har tomonlama oshirishni ta'minlaydi. A.S. Makarenko muloqotni pedagogik ta'sirning ajoyib vositasi sifatida ta'riflab, insonlararo muloqotni ta'minlovchi eng muhim va nozik faoliyat ekanligini aytadi. Pedagogik muloqot - shunchaki ijtimoiy-psixologik, pedagogik yoki kommunikativ hodisa emas. avvalo, kasbiy axloqiy fenomenidir (hodisa). Jamiyatda axloq normalariiga qat'iy rioya qilish hamda pedagogik vositalarni ilg'or jarayonlarini amaliy hayotga keng tatbiqi uchun o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik texnologiyalarini mukammal egallash lozim. Shunday «texnologiya»larning mavjudligini pedagogik tadqiqotlar isbotlab berdi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati.

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi - T.: O'zbekiston, 1999
2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat -T : Nizomiy nomidagi TDPU, 1991.
3. www.ziyouz.com



TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILISH VA O'YIN FAOLIYATINI UYG'UNLASHTIRISH

Ruziyeva Nargiza Xusenovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 28-maktabning
tarix hamda davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lif maktablari tarix darslari samaradorligini,
o'quvchilarning bilish jarayonini yuksaltiradigan o'yinli texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'yinli texnologiyalar, sog'lom fikr, ijtimoiy faollik, shaxs, tarix darsi,
dunyoqarash, milliy.

O'yinli texnologiyalar turli shaklda bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona
maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni ular o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuarlashtirish,
kengaytirish, egallagan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish
ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash,
ijtimoiy faollikni shakllantirish, yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog'lom fikr,
keng dunyoqarash egasi bo'lgan kamol shaxsnini kamol toptirishdan vazifalarni hal etadi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quiydagi vazifalar amalgalashadi:

- 1.O'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan bo'lgan qiziqishi ortadi;
- 2.O'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini
egallahsha yordam beradi;

3. Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratadi;

4. Hayotda va o'yinda yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga va mo'ljalni to'g'ri olish
ko'nikmalarini tarkib topishida yordam beradi;

5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallahsh, kamchiliklarga barham
berish imkoniyati yaratiladi;

6. Shaxsning ijobjiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

7. Insoniyat uchun ahamiyatlari bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy,
milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'rganishga e'tibor qaratiladi;

8. O'yin ishtirokchilarida ommaviy muloqat madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli texnologiyalarni o'quvchilarning bilim olishi va o'yin faoliyatining uyg'unligiga
qarab:

- syujetli – rolli o'yinlar;
- ijodiy o'yinlar;
- ishbilarmon o'yinlar;
- anjumanlar;
- o'yin – mashqlarga ajratish mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limga tashkil etishda rolli o'yinlardan samarali foydalanishga
alohiba e'tibor berilmoqda. O'quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallagan nazariy
bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limi faollikni yuzaga keltirish,
ularni ijtimoiy munosabatlarni jarayoniga keng jalb etishda rolli o'yinlar o'ziga xos o'rinni tutadi.
Bugungi kunda ta'limga jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar
yaratilgan. O'yinli texnologiyalar ta'limga jarayonining samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda
muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga
xizmat qiluvchi vaqt oralig'ini qisqartirish, ta'limga jadallashtirishga yordam beradi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqgan holda tarix darslarida qo'llaniladigan o'yinlardan bir
nechtasini ko'rib chiqamiz.

Zakovat o'yini – bu o'yinni o'tkazishda dastlab sinfonani o'yinga moslashtirish lozim. O'yin
ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish
huquqiga ega bo'ladilar. O'yin ishtirokchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar
esa o'yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga
joylashtirib o'qib eshittiriladi. Guruh sardori savolni o'qib o'qituvchiga beradi. Javobni aniqlash
uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib
topishga harakat qilishadi. Bu o'yinni asosan yuqori sinfda o'tkazish tavsiya etiladi.

Zakovat o'yinlarida asosan, o'rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga



diqqat qaratiladi.

To‘g‘ri top o‘yini – uchun ikkita plakat kerak bo‘ladi. O‘qituvchi birinchi navbatda biror mavzu bo‘yicha kalit so‘zlarni boshlanishini yozib qo‘yadi, o‘quvchi esa tartibni o‘zgartirgan holda kalit so‘zlarning davomini yozib qo‘yadi. O‘yinni 6-sinflarda qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish mavzusini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

1. Paleolit bu -
 2. Mezolit bu -
 3. Neolit bu -
 4. Eneolit bu -
 5. Bronza bu -
 6. Temir davri bu -
1. Insoniyat tarixida ilk tosh davri bo‘lib, er.avv. 1 mln -12 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.
 2. O‘rta tosh davri bo‘lib, er.avv 12-7-ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.
 3. Yangi tosh davri bo‘lib, er.avv 6-4-ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.
 4. Mis tosh davri bo‘lib, er.avv 4-3-ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.
 5. Er.avv. 3-2-ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.
 6. Er.avv. 1-ming yillikdan boshlanib, bu davrda insoniyat tarixida 2-mehnat taqsimoti ro‘y berdi.

Kim biladi o‘yinida – o‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh a’zolari 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligidan biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma’lumot o‘qishadi. Ikkinci guruh a’zolari esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlaydilar. Keying navbatda ikkinchi guruh a’zolari biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma’lumot o‘qishadi. Birinchi guruhdagilar esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun yutuqli kartochkalar beriladi. Bu o‘yinni xohlagan mavzu yoki fanni o‘rganishda dars jarayonida o‘quvchilarni zeriktirishga yo‘l qo‘ymaslik, qiziqtirish maqsadida ham o‘tkazish mumkin.

Masalan, 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsida foydalanish mumkin.

1-guruh:

U hukmdor Abulkayrxonning farzandi Shoxbuqsultonning o‘g‘li. Uning ismining ma’nosi “Kuch qudrat” demakdir. U XV asrning 80-yillarda o‘z davlatini tuzgan.

2-guruh: Shayboniyxon.

Rol ijro etish o‘yinlari – unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o‘z vazifalari va majbiriylarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Bu o‘yin orqali tarix darslarida tarixiy shaxslarni shaxsiyatini mukammal bilishda foydalaniladi. Masalan, To‘maris, Shiroq, Sitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddijn Kubro, Amir Temur, Xusayn Bayqoro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Shayboniyxon, Amir Olimxon, Nodira, Xudoyorxon, Muhammad Rahimxon II va Dukchi Eshon kabi shaxslarbo‘lishi mumkin.

Yuqorida didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning dars jarayoniga qiziqishi ortadi hamda o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

- 1.Og‘ayev S. Yangi pedagogik texnologiyalar – hayotiy ehtiyoj. Xalq ta’limi jurnali, 2001, 3-soni.
2. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii. Pod.red. S.A.Smirnova. – M.: Akademiya, 2004.
3. Aqchayev F.Sh. Tarix fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Jizzax, 2014.



**МАКТАБЛАРДА PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA VA UNING SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR**

Tog'ayeva Karomat Qudratovna

Surxondaryo viloyati Bandixon tumani 6- umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Телефон: +99893-796-75-74

normurodov.oibek@mail.ru

Po'latova Yulduz Bahromovna

Surxondaryo viloyati Bandixon tumani 6- umumiy o'rta ta'lim
maktabining ona- tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Телефон: +99893-796-75-74

normurodov.oibek@mail.ru

Muxammadiyev Saidbaxrom Saidburxonovich

Surxondaryo viloyati Bandixon tumani 6- umumiy o'rta ta'lim
maktabining tarix fani o'qituvchisi

Телефон: +99893-796-75-74

normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqlada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda kompetentsiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol usullarni qo'llash, intellektual ta'limiy didaktik o'yinlardan foydalanish darsdan ko'zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, interfaol, usullar, ta'lim, boshlang'ich, tafakkur, sinf, yangi axborotlar.

Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qbul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak deb ta'kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o'z nutqlarida. Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilmfanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishiga zamin yarataolmaymiz.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlarini qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega.. Bular: "Aqliy Hujum", "Yalpi fikriy Hujum", "Qarorlar shajarasи",



“Zigzag”, “6x6x6”, “Qora quti”, “Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim”, “Klaster”, “Shlyapa”, va xokozolar. Ta’lim jarayoniga bu metodlarni qo’llash: o‘quvchining muayyan nazariy bilimlar puxta o‘zlashtirishga; vaqtning tejalishiga; har bir o‘quvchining faollikka undalishiga; o‘quvchining erkin va mustaqil fikrlash layoqatini shakllanishiga; - o‘quvchida o‘zgalarning fikrini tinglay olish ko‘nikmasining hosil bo‘lishiga; o‘quvchining o‘z fikrini himoya qila olishiga; o‘quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko‘nikmasini shakllanishiga olib keladi; o‘quvchining qiziqishi (mativi) ortishiga; o‘quvchining izlanuvchanlikka ijodkorlikka chorlashiga; Shunday qilib ta’lim jarayoniga interfaol usullarni qo’llashda o‘qituvchi ta’lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo‘lib, bunda boshqaruv maqsadi ta’limning ob’ekti va sub’ekti sifatida o‘quvchiga yo‘naltiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh bo‘lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o‘yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o‘yin bilan o‘tadi. O‘yinlar faqat didaktik vosita bo‘lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o‘yining nozik tomonlarini egallamay turib, o‘yin faoliyatini boshqarishini o‘rganmay turib oldimizda turgan mas’uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. “Baxtli tasodif”, “Zakovot” va boshqa shu kabi intellektual o‘yinlar o‘quvchilarni aqlini charxlaydi va ularda aqliy rivojlanish xosil bo‘ladi. Ta’lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o‘yinlar ham o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o‘yinlarga dam olish yoki vaqt o‘tkazish vositasi deb qaramay, unga ta’lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv materialining mavzuga va darsning maqsadiga mos bo‘lishi uning maqsadga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Darsda foydalanimadigan barcha o‘quv materiallari darsning maqsadiga juda mos bo‘lishi zarur. Darsda bolalar nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo’llannilgan vazifalar turlarida o‘z aksini topadi. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

Foydalanimadigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. .G‘.Yo‘ldoshev., S.A.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent. “O‘qituvchi” 2004 y.
2. N.N. Azizxo‘jaeva. “Pedagogik tehnologiya va Pedagogik mahorat” Toshkent. “AvtoNashr” 2006 y.



CHIZMACHILIK DARSLARIDA LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH

Xasanova Saxiba Mamatova

Angren shahar 7-umumi o‘rtalim maktabining

II-toifali chizmachilik fani o‘qituvchisi

Tel: +99893 616-52-81.

Annotatsiya: ushbu maqolada chizmachilik darslarida loyihalash va modellashtirish usullarini o‘quvchilarga o‘rgatish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Loyihalash, modellashtirish, individual va tipaviy loyihalash.

Jamiyat rivojlanishi bilan ta’lim bazasi va shu bilan birgalikda o‘quvchilar ham “murakkablashib” boradi. O‘quvchi ko‘proq axborotlarga egaligi sababli unga ta’sir o‘tkazish “qiyin” bo‘lib, uni biror narsa bilan hayron qoldirish ham tobora og‘ir bo‘la boradi. Masalan, hozirgi kunda uyida televizor bo‘lmagan oila qolmagan hisobi, hamma bolalar videotamoshalarning ko‘plab turlarini ko‘rishgan. O‘qituvchilar esa ularni an’anaviy sinf doskasi va bo‘r yordamida nima uchun diqqatini jalb qila olmayotganlariga hayron bo‘ladilar.

Chizmachilik o‘qitishda dars jarayonini faollashtirish va uning samaradorligini oshirish yo‘llari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

- Darsning oqilona tashkil qilinishi;
- Turli ko‘rgazmali vositalaming qo‘llanilishi;
- Muammoli, dasturlashtirilgan, turli xil topshiriqlar, qiziqarli va tarixiy elementlar, sinfdan tashqari ishlarni qo‘llash;
- Grafik faoliyat vositalari yordamida o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini rivojlantirish va b.

O‘quvchilarda grafik madaniyatni tarbiyalash doimiy ravishda amalga oshirilib borishi kerak. Birinchi darsdanoq o‘quvchilarni chizma va undagi yozuvlarni toza bajarishni ahamiyati kattaligi haqida ogohlantirish zarur. Chizmachilik darslarida loyihalash va modellashtirishning usul va uslublarini orgatish muhim sanaladi. Sababi, loyihalash va modellashtirish hayotning har bir jabhasi uchun muhim bo‘lib, umumiy o‘rtalim maktablarida o‘qitish maqsadga muvofiq bo‘lar edi

Loyihalash — mo‘ljallangan ob‘yektlar (apparat va asboblar, bino va inshootlar, yo‘l va ko‘priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar, radiopriyomnik va televizorlar, telefon va kompyuterlar, kiyim-bosh va poyabzallar, mebellar hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni. Loyihani maxsus tashkilotlar, firmalar yoki guruhlar amalga oshiradi. Bular sohalar bo‘yicha yoki ixtisoslashtirilgan tarzda ish yuritadi. Biror ob‘yektni loyihada standartlashtirilgan detallar, agregatlar, uzellar va me’yoriy hujjalardan keng foydalaniadi.

Modellash — fizik hodisa va jarayonlarni model yordamida tadqiq qilish; ob‘yektlar (jonli va jonsiz tizimlar, muhandislik konstruksiyalari, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy jarayonlar hamda loyihalanadigan ob‘yektlar)ning modellarini yasash. Fizik, matematik, elektr, kibernetik va boshqa xillarga bo‘linadi. Fizik modelda tadqiqot tekshirilayotgan jarayonning fizik tabiatini va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o‘lchami, tezligi) jihatidan farq qiladigan modelda olib boriladi. Fizik model gidrotexnika inshootlari, samolyot, kema va boshqalarni tekshirishda qo‘llaniladi. Matematik modelda berilgan fizik jarayonlarning matematik ifodalari modellanadi. Elektr model ham keng tarqalgan. Bunda aktiv, induktiv va sig‘im qarshiliklardan foydlaniladi. Tirik organ izmlardagi boshqarish jarayonlarini o‘rganish uchun kibernetik modellar yaratilgan. Model har doim boshqa ilmiy va maxsus usullar bilan birga qo‘llanadi. Avvalo, Model eksperiment bilan chambarchas bog‘liq. Biror hodisani uning modelida o‘rganishni eksperimentning alohida xili deb qarash mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki loyihalash hamda modellashtirishdan hayotning har bir rivojlangan zamonaviy sohalarida ishlatishimiz lozim. Modellashtirish va loyihalash esa umumta’lim



maktablarining aynan, chizmachilik darslarida ishlatalishi esa, ushbu fanlarning maktab ta'lim tizimi hamda inson hayoti davomida turgan muhim o'rnini belgilab beradi desak xato bo'lmaydi. Abatta bu katta hayotga qo'yiladigan ilk qadamlardan biridir.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. E.I.Ro'ziyev, A.O.Ashrboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. — T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Loyihalash>
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Modellash>



O'QITUVCHILIK FAOLIYATIDA PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING TUZILISHI

Zulpikoriyeva Dilfuza Toirovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24- mактабнинг о'qituvchisi

Kalit so'zlar: Pedagogik qobiliyat, psixologiya, didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, pertseptik qobiliyat, nutqiy qobiliyat.

Annatatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlari va ularning turlari haqida fikr yuritilgan.

Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat - bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi.

2. Akademik qobiliyat - barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat - qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'qituvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagini alomatlar, uncha katta bo'limgan tashqi belgilarni asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat - ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq, shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi, qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - sinf-guruuh yoki jamoani uyuştirish va uni boshqarish iste'dodi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyuştirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyuştirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati - o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatiligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi - avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro'ga ega bo'lish o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazo), shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga ham yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar - muomala va muloqot o'rnatma olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatma bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Psixologik tashxis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar - insonnинг kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiyot etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati - bir necha obyektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. O'quvchi, o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishing taraqqiyot etgan bo'lishi muhimdir.

10. Konstruktiv qobiliyat - o'quv-tarbiya ishlarini rejallashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishslash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. Gnostik qobiliyat - tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini



va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Pedagogik qobiliyatlarни shartli ravishda uch katta guruhgа bo‘lish mumkin: shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

Shaxsiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: 1) ta’lim oluvchilarga ijobiy yo‘nalganlik - ta’lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do’stona munosabat, xayrixohlik; 2) vazminlik, o‘z hissiyotlarini nazorat qila olishi - har qanday vaziyatda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o‘qituvchi zaruriy tarzda o‘z hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg‘u, g‘azab). Lekin vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak; 3) o‘z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish - o‘qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro‘y bergen bo‘lsa ham o‘zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qibiliyatlar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: 1) tushuntirish qobiliyati - o‘rganilayotgan materialni ta’lim oluvchilar uchun tushunarli qilib etkazish, buning uchun o‘qituvchi ta’lim oluvchilar uchun yangi bo‘lgan materialni “ularning ko‘zlarini bilish” kerak”; akademik qobiliyat - o‘z fanini, sohasini chuqur bilishi, umumiyligi va ilmiy dunyoqarashning kengligi; nutq qobiliyati - o‘z fikrlari, his- tuyg‘ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o‘rinli foydalana olishi. Bunda suhbat predmetini bilish, etkazayotgan ma’lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni “og‘irlashtiruvchi” tuzilmalardan foydalanmaslik, qo‘llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qibiliyatlar quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: tashkilotchilik qobiliyati - o‘quvchilar jamoasini tashkillay olish va o‘z faoliyatini tashkillay olish; rejalashtirish, nazorat qilish; kommunikativ qobiliyat - o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda muloqotni to‘g‘ri tashkillash; pedagogik kuzatuvchanlik - o‘quvchining ko‘rinishidan undagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlik; pedagogik takt - ta’lim oluvchiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishda aniq vaziyatdan, ta’lim oluvchi shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik; suggestiv qobiliyat - ta’lim oluvchiga emotsiyonal-irodaviy ta’sir o‘tkazish, talab qo‘yish va talabning bajarilishini qat’iy nazorat qilish (bir tomonidan qo‘rqitishsiz, qistovsiz - boshqa tomonidan bo‘shlik qilmasdan); pedagogik prognoz - o‘z harakatlari natijasini, shaxsida bo‘lib o‘tadigan o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish; diqqatni to‘g‘ri taqsimlay olish - bir paytning o‘zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o‘z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, ta’lim oluvchilar jamoasi hulqini nazorat qilib turish.

Yuqorida fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, pedagogik qobiliyat o‘qituvchi faoliyatida muhim ahamiyatga ega ega. Mazkur qobiliyati shakllanmagan o‘qituvchi o‘z fanini o‘quvchilarga yaxshi yetkaza olmaydi va o‘quvchilarning ham bu fanga qiziqishlari bo‘lmaydi. Shuning uchun har bir pedagog mazkur qobiliyatini rivojlantirib borishi uchun har doim o‘z ustida ishlashi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati

1. J.O.Tolipova. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.
2. B.X.Xodjayev. Umumiyligi pedagogika. Toshkent 2017-yil



PIRLS TADQIQOTLQRIDA MATN VA TOPSHIRIQLAR BILAN ISHLASH

Baratova Dilbar Gulyamovna
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani
27-umumi o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolamda hozirgi kunda xalqaro tadqiqotlardan PIRLS ni boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn va topshiriqlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tavsiyalar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish, matn, tushunish, idrok etish, ko'nikma.

O'qish savodxonligi-jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyatda qo'llay olish qobiliyatidir.

Ushbu nuqtai naza o'quvchilarining o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratiladigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihibar v a vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

PIRLS, odatda, 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi. Bular: diqqatni jamlash va aniq axborotni talqin qilish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, konspekt va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda konkret yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tavsiylarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

Matnni baholash va tanqidiy taxlil qilish quidagilarni o'z ichiga oladi:

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholosh;

PIRLS tadqiqotida tushunib o'qishni baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar quyidagi foizlarda taqsimlanadi:

- Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topish 20%;
- To'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish 30%;
- G'oyalar va axborotni umumlashtirish, talqin qilish va uyg'unlashtirish 30%

O'qish savodxonligi o'quvchilarining ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi va baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash"
Toshkent-2019

2. Internet tarmoqlaridan.



O'QISH DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Boboqulova Nigora Shavkatovna,
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani 26-umumta'lismaktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'qish fanlarini tashkil etish, o'qish fanidan zamonaviy texnologiyalarini qo'llashning ta'limga sifatiga ta'siri. Dars jarayonida zamonaviy yondoshuvlar orqali o'qish darslariga ta'limga texnologiyalarini tadbiq etish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, ta'limga, dars, faollik, amaliy faoliyat, innovatsiya, zamonaviy texnologiya.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'limga jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda ekin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'limga tarbiya olishga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'limga tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Hozirgi kunda ta'limga jarayonida interfaol o'yinlar, innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kuchaymoqda. Bu zamonaviy texnologiyala o'quvchilarni egallamoqchi bo'lgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ta'limga jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.[3.65] Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, dars jarayonida o'qituvchi tomonidan bo'lajak dars uchun tayyorlanadigan texnologik xarita muhim ahamiyatga ega, chunki bu xaritada dars jarayoni yaxlit aks ettirilgan bo'lib, darsning maqsadi, vazifasi, usullari ko'rsatilgan bo'ladi va o'qituvchini kengaytirilgan dars ishlanmasidan xalos etadi.

O'qish darslari zamirida bolalarning aqliy, axloqiy tarbiyalariga, muomala odoblariga, nutqlarning ravon, nafis, ifodali bo'lishiga, o'quvchilar ruhiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning ruhan tetik, qalban jasur, jismonan sog'lom bo'lib o'sishlariga erishiladi.

Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'limga jarayoni unumdarligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotga erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ta'limga samaradorligini oshirish, davlat ta'limga standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limga sifat ko'rsatkichini kafolatlashda zamonaviy metodalaridan unumli foydalanilmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan o'quv jarayonida qo'llash jahon amaliyotiga keng tarqalmoqda. O'qituvchi va o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va usulblarni, o'qitishni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayonini samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatibm o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, darslar olib borilgada an'anaviy darslardan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlikmuhitini yaratib berib, unga o'z fikrini erkin bayon etishga imkon yaratib berishdir. O'quvchiga hech qanday tayziq o'tkazmasdan, uni shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatda o'quv muhiti yaratiladi. O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiyligi rivojlanishi, psixologiyasini hisobga olish zarur. O'quv materiallarining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o'qishni tashkil etish bolani o'qish mashg'ulotlaridan bezdiradi. O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar didaktik o'yinlar asosida o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamaganidek, o'ylab charchaganini sezmaydi. 1-4-sinfda o'qish darslari biz qancha vazifalarni bajaradi.



Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini o‘tishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilardagi qobiliyatni yanada yorqinroq ko‘rinishga, o‘sirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. (Darslik) Toshkent, Noshir, 2009
2. Abdurazzoqov A. 2-sinf o‘qish darslarida muammoli vaziyat yaratish. Til va o‘qish ta’limi. 2003 №34. B. 161
3. Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –T.: O‘qituvchi, 2016. 68 b.



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI SAVODGA O'RGATISH DAVRIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Izbosarova Mohinur Axtamqulovna,
Navoiy viloyati Karmana tumani
7-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lism tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy yuksaklikka doir islohotlar amalga oshirilayotgan O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarga ehtiyojning oshishi davr talabidir.

Hayotga ziyrak ko'z bilan qaraydigan, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda insonni erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash zarur.

Savodga o'rganish bola hayotida eng mas'uliyatli davr. Bu davrda bola ijtimoiy tafakkurida keskin o'zgarishlar vujudga keladi. O'ziga ota-onan tomonidan bildirilayotgan ishonchni bola yaxshi his qiladi. Zimmasiga yuklatilayotgan sinovlarga munosib javob bera olmasligidan cho'chiydi. Ichdan ezilishi, chuqur hayajonga tushishi mumkin. Shuning uchun bu davrni psixologlar "krizis davri" deb ham ataydilar. Demak, insonparvaplikka asoslangan ta'lism tizimimiz, o'zini ustoz degan sharaflı nomga sazovor deb bilgan o'qituvchilar bolaning mifik hayotiga, yangi o'rtoqlariga, noodatiy hayot tarziga ko'nikib ketishlari uchun imkon qadar ko'maklashishlari lozim.

Savodga o'rgatishning ilk bosqichida o'qituvchi oldida so'zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so'zni bo'g'in va tovushlarga ajratish, bog'lanishli nutqni o'stirish, boshlang'ich orfografiya qoidalari xususida tasavvurni rivojlantirish, umuman ona tilining go'zalligi va rang-barangligini anglatishdek muhim vazifa turadi. Bu bosqichda muayyan turlarni tashkil etuvchi premetlar nomi - alifbe darsligining alifbegacha bo'lgan davrida: mevalar, sabzavot, poliz ekinlarining turlariga oid rasmlarning berilishi, keyingi bosqichlarda joy nomlari, o'rmon hayvonlari, parrandalarni turkumlab o'rgatishga oid matnlar va rasmlarning taviya etilishi, tugallanmagan jumla, matn, so'zlarning berilishi, ularning o'quvchi tomonidan davom ettirilishi, o'zbek xalq maqollari, topishmoq, tez aytish va hikmatli so'zlarning berilishi - bularning barchasi o'quvchining nutqi va tafakkurini o'stirishga qaratiladi.

Savod o'rgatishning asosi hisoblangan alifbe darsligini takomillashtirish davr talabidir. Takomillashtirish darslikning metodik qurilshiga, mazmuniga, g'oyaviy yo'nalishiga birdek aloqador bo'lib, bunda, avvalo, didaktikaning umumiyligi mezonlariga hamda alifbe darsligi tuzilishining xususiy mezonlariga asoslaniladi.

G'oyaviylik, bayonning ilmiyligi, tushunarligi, ko'rsatmalilik, onglilik, o'quv materiallarining hayot bilan bevosita aloqadorligi, bolalar yoshi va dunyoqarashi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini hisobga olinishi kabi qator didaktik mezonlar alifbe darsligining tuzilishida, mazmunida hisobga olinishi zarurdir.

Shuningdek, alifbe darsligini tuzishda qator xususiy jihatlar ham mavjud bo'lib, bular alifbe darsligini tuzishning asosiy qoidalari nazarda tutiladi.

Shuningdek, o'quvchilar ongini faollashtirishda rebus-o'yinlar, topishmoqlar, turli jumboqlar katta ahamiyatga molik bo'lib, ular savodga o'rgatish jarayonining qiziqarli va sermazmun bo'lishiga imkon yaratadi.

Savodga o'rgatishning o'ziga xos metodlari mavjud bo'lib, bundagi asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- a) o'zbek tilining tovushlari va mazkur tovushlarning yozuvda ifodalanishining o'ziga xos yo'nalishlarini e'tiborga olish;
- b) mifik ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan bolaning ta'lism jarayoniga moslashish imkoniyatlarini o'rganish, alifbegacha bo'lgan davrda o'quvchilarni savod o'rgatishga tayyorlash, ularda gapni so'zdan, so'zni bo'g'indan va nihoyat bo'g'indan alohida tovushlardan tashkil topganligi haqida tushunchani tarkib toptirish - savodga o'rgatish alifbegacha bo'lgan davrdan to alifbe davri tugagunga qadar davom etadi. Chunki o'quvchining tovush, bo'g'in, so'z va gapning



o‘zaro aloqadorligi, uyg‘unligi va yaxlitligini to‘g‘ri idrok etishi orfografik savodxonlikka, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, bola nutqining rivojlanishi va o‘sishiga ijobiylar ta’sir ko‘rsatadi. Dastlab bola so‘zni idrok etishi, so‘ng so‘zni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni tovushlarga ajrata olishi, gapni so‘zlardan, matnni gaplardan farqlay olishi lozimdir.

Bu davrda asosiy e’tibor bola nutqini o‘stirishga, sinfda o‘quvchilar jamoasini tashkil qilishga, bolani hali yaxshi o‘zlashtirilmagan vaziyatda o‘zini erkin, bemalol his qilishiga, atrof tevarak bilan tanishtirish, o‘quvchilar jamoasi bilan do‘stona aloqa o‘rnatish kabilarga e’tibor beriladi.

Hozirgi vaqtida izlanuvchan va tajribali o‘qituvchilar bilish faoliyatini

jadallashtirishda ta’lim jarayonini didaktik o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Ma’lumki, o‘qituvchi didaktik o‘yin darslarni o‘tkazish uchun juda ko‘p adabiyotlar bilan tanishishi, o‘quvchilarning bilim darajasi, yoshi, psixologik xususiyatlari, iqtidorini hisobga olishi zarur.

Didaktik o‘yinli darslar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko‘rish va baholash jarayonida qo‘llanilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o‘yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so‘ng ommaviy o‘yin darslarini o‘tkazishi kerak. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yin darslarda ishtiroy etish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan bo‘lishlari zarur.

Ta’limdan maqsad o‘quvchilarni ilmiy bilim va tushunchalar bilan qurollantirishdangina iborat bo‘lmay, balki axloqqa oid bilim va tushunchalar

asosida ular ongiga, turmush tarziga insoniy axloq me’yorlarini singdirishni, e’tiqodi va ma’naviyatini tarkib toptirishni ham nazarda tutadi. Shunga ko‘ra alifbe darsligiga o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga qaratilgan ertak, hikoya, rivoyat, masal, maqol kabilalar kiritilgan.

Alifbe darsligi ta’lim-tarbiya jarayonining birligini ta’minlashi kerak. Savodga o‘rgatish davrida alifbe darsligidagi mavjud o‘quv materiallari, qo‘sishma manbalar asosida o‘quvchilarda milliy g‘oya, milliy ruh tarkib toptiriladi, ularga jamiyatimiz a’zolariga xos vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik g‘oyalari singdiriladi.

Test

1. Alifbe kitobining muallifi kim?

A. R.Safarova , T. G‘afurova

*B. R. Safarova , M. Inoyatova

C.R. Safarova , M. Jumayev

2. Savod o‘rgatishning asosiy metodlari ko‘rsatilgan javobni belgilang.

A. Suhbat va tushuntirish metodi

B. Muammoli yarim izlanish metodi

*C. Analistik – sintetik tovush metodi

3. Savod o‘rgatishning tayyorgarlik davriga necha soat ajratilgan?

*A. 8 soat B. 10 soat C. 12 soat

4. Savod o‘rgatish davrida o‘qituvchi oldidagi vazifa.

*A. Savodga o‘rgatishning ilk bosqichida o‘qituvchi oldida so‘zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so‘zni bo‘g‘in va tovushlarga ajratish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish.

B. Savodga o‘rgatishning ilk bosqichida o‘qituvchi oldida so‘zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, yozma matn tuzish

C. Savodga o‘rgatishning ilk bosqichida o‘qituvchi oldida so‘zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so‘zni bo‘g‘in va tovushlarga ajratish, diktant yozdirish

O‘quvchilarning qiziquvchanligini va o‘qishni o‘rganishga bo‘lgan intiluvchanligini oshirish maqsadida boshqotirmalardan foydalanamiz.

Savod o‘rgatish davrida so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish , bo‘g‘inlardan unli va undosh tovushlarni ajratishda ko‘rgazmalilikdan foydalanish yuqori samara beradi.

So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ling.

“Kun – tun” metodida unli va undosh harflarni ajrata olish , ularni farqlay olish va qiziquvchanlikni, chaqqonlikni oshirish maqsadida “ Undosh harf yozilgan kataknini ko‘k rangda bo‘yang” kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmalarining shakllanishi, didaktik o‘yinlar orqali oshirib boriladi. Bu o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishlari kuchayadi, mustaqil tafakkur qilish jarayoni kengayadi, hamda yozma



va og‘zaki nutqi rivojlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, dars – bu katta asar hisoblanadi. Bu asarni yaratish uning maqsadini, vazifasini, asar qahramonlarini, yangiliklarni va shu yangiliklarni qo‘llash uchun qanday usullarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishni mohir pedagok bilishi lozim.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. R.Safarova va boshqalar Savod o‘rgatish darslari (Alifbeni o‘qitish bo‘yicha metodik qo‘llanma).-T.: Ma’naviyat 2003
2. G‘ulomova. A, Ne’matov. H. Ona tili ta’lim mazmuni-T: 1995
3. G‘ulomova. A. Ona tili o‘qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. T. 1999
4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi. RTM 1994
5. R.Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova, L. Shermamatova “Alifbe” darsligi Toshkent “Ma’naviyat” 2019
6. Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo‘ldosheva Savod o‘rgatish darslari T.:”O‘qituvchi” 1996



CORRECTING MISTAKES AND PROVIDING QUALITY FEEDBACKS AT THE ENGLISH LESSONS

Kamolova Mekhriniso Davlatovna

Navoiy viloyat Qiziltepa tumani

1-уммумий о‘рта та’лим мактаби

Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Students will make lots of mistakes, throughout their studies. It is an important part of the learning process. If they are not making mistakes then they are not being given difficult enough topics and structures to work with. You have to choose material that is challenging but manageable for your class and correct mistakes in positive ways. Singling out pupils who make errors will make learners feel self-conscious and shy so some tact when correcting mistakes is important. How To Proceed:

1. Practice

When introducing new vocabulary, emphasize correct pronunciation and during the drilling exercises have pupils practice using choral repetition. This means English learners are not immediately singled out to pronounce new and unfamiliar words and they can become accustomed to the sound of the words together. The next step is generally to call on students or have students volunteer to pronounce words or phrases. It is an important step to check pronunciation on an individual basis however it means that a student is being singled out to perform independently in front of the entire class. Correcting mistakes at this level is the most challenging but you can use the same process to correct errors in any situation.

2. Self- Correction

The best way to correct mistakes is to have pupils correct themselves. Ideally a learner will realize a mistake has been made and fix it automatically but that is not always the case. If a pupil answers a question incorrectly you can gently prompt them to revisit their answer. One of the ways to do this is to repeat what the student said placing emphasis on the incorrect portion, for instance “I have play baseball.” and saying it in a questioning way. At this point the pupil has an opportunity to think about and revise his initial response. You may have your own method of prompting your class with a facial expression or phrase which they associate with being incorrect but avoid saying words such as wrong, incorrect, or no in response to mistakes. They are negative and will have negative effects on your pupils’ confidence in the classroom.

3. Peer Correction

When your pupil is unable to self-correct, peer correction might be appropriate. If a learner raises his hand while you are waiting for a pupil to self-correct, you may want to call on that pupil for the correct answer or, after waiting a short time for a pupil to self-correct, you could ask the whole class the same question and encourage a choral response. Especially with challenging questions, this is a good method because then it is unknown who in the class has the right answer and who does not. Just repeat and emphasize the correct answer by writing it on the board and explaining why it is correct. This is a good method of correcting mistakes because it shifts focus away from the pupil that provided the original incorrect answer.

4. Providing the Answer: Last Resort

Sometimes individual pupils as well as entire classes have no idea what the answer to your question is. If providing hints and examples does not lead them to the correct answer, you will have to provide it. Generally this is a last resort and means that a lot of review activities may be in order but keeping a positive attitude and explaining the answer good-naturedly will do a lot to keep pupils positive about learning English. Asking similar questions in a simpler form will build learner confidence again so that the lesson can continue smoothly. At every stage of an activity, praise should be given. If a pupil volunteers to answer a question, you can thank him or her immediately for volunteering which will boost his self-confidence. At that point if your pupil provides an incorrect answer you can correct in an encouraging way by saying “Almost.” If a pupil gives the correct answer, be sure to say “Good job!” or “Excellent work!” As long as you are positive in your method of correcting errors, reassure your pupils that they are doing well, and do not get upset with them for making mistakes, they will continue to volunteer and try their best because making mistakes is OK. That is how learning should be. If students never take risks, they will not improve. My method. If a student makes some mistake which is actual for the lesson I ask him or her in a calm and reassuring way:



Will you say it again! My students know that at that point they should think of what they have just pronounced and try and correct themselves. They usually succeed in doing so. At the same time I try not to interrupt when they make mistakes which they cannot avoid at this moment of learning... And the best way to correct one's mistakes in writing is to read a lot; more you read more you know how words are spelt and arranged in sentences. Quality feedbacks at the English lessons. Providing feedback throughout lessons is important. Feedback should be used to encourage pupils to work hard and indicate what they need to focus on when they are having difficulty.

Feedback often takes one of three forms: verbal, visual, or written. In this article we'll take a look at how the English teachers can use these different methods to provide feedback at the English lessons.

Ways To Provide Feedback

1. Verbal Feedback

During lessons, teachers use a lot of verbal feedback to let students know how they are doing and also to transition from one section to another. Short expressions such as "Great!" or "Good job!" can be used to praise your pupils for correct answers. Rather than tell them directly they are incorrect, it is better to ask them to try again or reconsider their answers. The goal is to elicit the correct answer from the class and students should not be afraid of being wrong so keep your reactions positive. You can summarize how students did and introduce the next topic for transitions by saying "Perfect! "You did so well talking about food. Now let's move on to ~." This will reinforce the fact that students should keep up the good work. If student responses are a little lackluster, you can point that out in your comments too.

By saying "I know it's Friday but I need a bit more energy in this next section, OK? *wait for student response* OK! Great, now we're going to talk about ~." you show that you empathize with students while still pushing them to do their best. It is easy to include verbal feedback in every stage of your lesson.

2. Visual Feedback

Visual feedback can come in two forms. The first is any expression or gesture you use with or without verbal feedback that indicates how students are doing in class. A smile or thumbs up would be one form of visual feedback. When using visual feedback, it is not always necessary to add verbal feedback and could save you time when working through an activity quickly. You can also prompt students to reconsider their answers and self-correct using visual feedback. If you use the same expression each time students say the incorrect answer, they will pick up on that. This visual feedback allows you to give students another chance without verbally telling them they are wrong. Another form of visual feedback can accompany written evaluations. This may take the form of stickers, stamps, or even charts that reflect student accomplishments. You may choose to have a display in the classroom that visually represents how well the class is doing in reaching their goals so that students can see how much progress they have made and stay motivated.

3. Written Feedback

Teachers often have the opportunity to give students written feedback on homework assignments, on exams, and at the end of each term. These are great opportunities to point out what students did well and what areas they still need to work on. You should provide students with some suggestions of what they could do to improve and offer to assist them by meeting with them for tutorials or providing them with extra study material. You can also allow students to provide feedback for each other. Doing this during role play exercises, for example, means that students who are not performing still have to pay attention. Categories could include pronunciation, creativity, and performance so that the presenting students are marked on how well they were understood, the quality of their script, and the quality of their acting. Students could be graded as a group or individually. Student evaluations should not have any bearing on the grades that you give students but you might want to use the information to say which skit was the best and who the best actor was.

Regardless of how often you use these different types of feedback, it is important that students are given a clear image of their performance as well as their goals. This will help them focus of what is most important. Giving constructive criticism and providing students with both the materials and support they need to succeed are important. Doing these things will help students excel in their studies and maintain a positive attitude towards education.



ONA TILI — BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUV PREDMETI SIFATIDA

Mamajanova Muxayyo Mo‘minjonovna

Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7 сонли умумий урта таълим мактабининг
1- тоифали бошлангич синф укитувчиси

Annotatsiya; ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish mexanizmi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, dars, ta’lim, fan, jarayon, o‘qituvchi, bilim.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”5, — deydi u. Shuning uchun hamboshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili darslarida ongли o‘qish va savodli yozishga o‘rganadilar, og‘zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko‘nikm a-m alakalar (nutq, o‘qish va yozishga oid malakalar) o‘quvchilam ing o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O‘quvchi o‘qish ko‘nikm alarini egallah bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o‘zining ona tilini o‘rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlami o‘qitish vositasi hamdir: jam iyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordam ida o‘rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda ham alohida o‘rin tutadi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnal- larni o‘qigan bola o‘zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang‘ich sinflarda asosiy o‘rinni egallar ekan, har bir o‘quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur. Boshlang‘ich sinflarda ona tili mashg‘ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘qish, yozuv, grammatik materialni o‘rganish, kuzatishlar hamda o‘quvchilam ing ijtimoiy faoliyatlari bilan bog‘liq holda, ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o‘rgatish, ya’ni ularni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish, bu ko‘nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til m e’yorlarini, ya’ni imloviy va tinish belgilariга rioxaliga qilingan savodli yozuvni, to‘g‘ri talaffuzni o‘rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallah.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o‘rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O‘quvchilarni o‘qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko‘nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang‘ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo‘lib, unda o‘quv predmetining mazmuni va hajmi, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko‘nikm a va malakalar darajasiga qo‘yilgan asosiy talablar belgilangan bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchilar dastur talablari asosida ish olib boradilar. Boshlang‘ich sinflarni ona tili dasturi ikki qismidan iborat:1. Tushuntirish xati.2. Asosiy qism. Tushuntirish xatida ona tili predm etining tutgan o‘rni, lining vazifalari ko‘rsatilib, metodik yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

Adabiyotlar:

1. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. N e’matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). — T.: Cho‘lpon, 2005.

2. K. Qosimova, A. N e’matova. 2-sinfda ona tili darslari. — T.: Cho‘lpon, 2004



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI ANIQLASH UCHUN ZEHNINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Qurbanova Xolbibi To'raqulovna,
Navoiy XTXQTMOHM
“Boshlang‘ich, maxsus ta’lim”

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda ularni zehnini aniqlab qobilyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib matematik savodxonlikni oshirish metodikasi bilan tanishamiz.

Kalit so‘zlar: Zehn turlari:ogzaki,tasviriy,jismoniy ,musiqiy,tabiiy,shaxsiy zehn turlari.

Dunyoni bilmakka idroking garov, Zehn qo‘ymoqqa dili poking garov. Yaxshi ish qilmoq uchun garov o‘quv, Sanga lozimdir uquv birlan o‘quv. Anbar Otin Agar inson ilm nuri birla o‘z yo‘lini yoritsa,zulmat va nodonlik ko‘chada qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘lganidek manashu ilmni o‘z zehni bilan oladi.Ilm olish jarayonida ko‘pchilik boshlang‘ich sinflarda barcha o‘quvchilarga bir xil talab qo‘yiladi.Lekin o‘quvchining qobilyati bilan birga idrok qila olish zehni ham muhim rol o‘ynaydi.Biz o‘quvchini zehnini hisobga olmay unga bosimni kuchaytiramiz. Xo‘s sh zanning o‘zi nima?,u inson qobilyatlari majmuasida qay tariqa namoyon bo‘ladi.

“Zehn o‘zgarib turuvchi,yashash va xotirani mustahkamlab turadigan har bir insonga xos alohida qobilyat”dir.Taniqli amaliyotchi psixolog Xovard Gardner o‘z tadqiqodlarida insonga bir necha xil zehn borligini ta’kidlaydi.U 1983-yilda yozgan “Aql chegaralari”nomli kitobida madaniyat va ilmda zehn tushunchasi juda tor izohlanadi,aslida zehn inson miyasining turli bo‘limlarida tashkil topadi va u ilm olayotganda idrokini namoyon etadi deb baholaydi.

Gardnerning ko‘p qirrali zehn haqidagi qarashi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ham iqtidorini namoyon etishida e’tiborga oladigan jihatdir deb hisoblab hukmingizga bir qancha zehnni aniqlash testlarini tavsiya etamiz.

Og‘zaki zehn-tildan so‘zlardan unumli foydalana olish,murakkab ma’nolarni anglash,insonlarga gapini yaetkaza bilish qobilyati sanaladi.Bunday qobilyatlar hamma o‘quvchida namoyon bo‘la olmaydi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarimiz o‘z fikrlarini yetkazishda qiyinalishadi yoki duduqlanib gapirishadi ayrim hollarda ortiqcha so‘zlarni (keyin,lekin,hm) ko‘p takrorlashadi. Bunday o‘quvchilarimizda unumli tinglash qobilyati past bo‘ladi,Bir hikoya yoki ertakni oxirigacha tinglamaydi, fikri tarqoq bo‘ladi. Og‘zaki zehni past o‘quvchilarga audio kitoblardan ko‘proq tinglashi yoki kitobni o‘qib mazmunini gapirib berayotganda ortiqcha so‘zlarni ishlatganda uni chalg‘itib choralarini qo‘llash (ortiqcha so‘z qo‘shtan gapini ko‘p marotaba yozish)tavsiya etamiz.

Mantiqiy zehn tushunchalar va fikrlar o‘rtasidagi aloqalarni idrok eta olish,mavhum va ramziy ma’nolarni anglash qobilyatidir.Bunday zehnga ega o‘quvchilarimiz topishmoq va mantiqiy o‘yinlarni tez topa oladi,matematik figuralarni chizishda aniqlik bilan bajaradi,xotirasiga tayanmay murakkab misol va masalalarni ham oddiy soda usulda yechishga harakat qiladi. Mantiqiy zehni sust o‘quvchilarini aniqlash metodikasi. -O‘quvchilar qoliga chizg‘ich bermasdan tog‘ri chiziq chizdirish. – O‘quvchilarga turli tasviriy ifodalarni berib bir xildagilarini ajratishni buyurish. – O‘quvchilarga ortiqchasini toppish yoki xatosini toppish kabi testlar bajartirib aniqlanadi.

Qobiliyati past chiqqan o‘quvchilarimizga eng avvalo aniqlik mashqlari chizg‘ich va qalam yordamida turli o‘lchovdagi geometric figuralarni chizish orqali yoki mantiqiy matematik savollar orqali rivojlantirish mumkin. Quyida sizlarga bir nechta mantiqiy matematik savollar beramizki bu savollardan matematika darslarida va o‘quvchilaringizni mantiqiy zehnini oshirishda foydalanasizlar degan umiddamiz. Ayrimlarini uyga vazifa qilib berinki uyda ota-onalari va oila a’zolari bilan birgalikda bajarishsin. Sizlarga bir nechta mantiqiy masalalar tavsiya etamiz.

1. 1,2,3,4,5,6,7,8,9 sonlari orasida shunday amallarni qo‘yinki javobi 1 chiqsin.
2. Beshta bir yordamida 100 sonini yasang.J:111-11=1
3. Qaysi sonni matematik amallarsiz cheksizlik bekgisiga aylantiring? J;8 4. 4 ta 2dan har xil matematik amallar yordamida 9 sonini chiqaring? J:22:2-2=9 5.5 ta qayin o‘sadi har birida 5 tadan shox bor,Har bir shoxda 3 tadan olma bor.

Barcha shoxlardagi mevalar qancha? J; Qayin olma solmaydi.



Masalalarni o'quvchilarning intelektual qobiliyatidan kelib chiqib aynan kitobdan foyfdalanib emas, mustaqil ish sifatida qo'shimcha manbaalardan foydalanib ham bajarishlari tavsija etiladi. 1-sinfda ko'pchilik iqtidorli bolalar kitobdagagi misol va masalalarni oldindan yechib bo'lishgan bo'ladi. Bunday hollarda o'quvchimizda maktabga kelib qiziqishlarini oshirish uchun rag'batlantirishning noan'anaviy usullaridan fodalanishingizni, hamda har haftada rag'batlantirishlarning boshqa usullarini o'ylab topishingizni maslahat beramiz. Zero biz zamonamiz shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashayapmiz.

Mashhur pedagog Xampeyning fikricha inson zehni insonlar o'rtasidagi sog'lom aloqa o'rnatish bilan yana ham charxlanadi. O'quvchilarimizni matematik zehnni oshirishda ularni o'zidan o'zgalarni o'qitishda foydalanish tamoillarini ishlab chiqishimiz darkor. Ayniqsa o'quvchialrimizga ko'paytirish va bo'lish amallarini o'rgatishda bu metodik tamoillni qo'llasak samaraga erishamiz.

O'quvchilar o'zaro ko'paytirish va bo'lishdan og'zaki 10 ta savol beradi bir-biriga va bu holat takrorlanish orqali matematik zehnni oshiramiz. –Murakkab bo'lish amallarini soddalashtirib yechish metodi orqali ularning zehnni oshirib, ko'nigmaga aylantirishni tavsija etamiz. Bunda bo'luvchimizni ko'paytiruvchiga aylantirib soddalashtiramiz: $7140 : 420 = ?$ Bu misolni yechishda og'zaki zehnni rivojlantirib 420 ni 10 ga ko'paytiramiz = 4200 qolgan qoldiqni yana beshga ko'paytirib - 2100 ni qo'shamiz = 6300chiqdi. $7140 - 6300 = 840$ qoldi 840 ni osongina 420ga bo'lamiz va natija 17 chiqdi.

Zehnning ko'p turlari bor. Bolada u-bu zehnning qaysidir jihatni namoyon bo'ladi deb ta'kidlashadi, lekin tug'ma zehn va iqtidor birgalikda namoyon bo'lmog'I darkor. Buzrugmehr dan so'rashibdi: -Inson uchun eng zarur narsa nima? - Tug'ma zehn.deb javob beribdi. -Tug'ma zehn bo'lmasachi? - Odob va ilm o'rgansin. - O'rgana olmasachi? -Molu-davlat orttirsin. Boylik kishini ko'p ayblarini yopadi. -Bu narsa ham qo'lidan kelmasa-chi? -Xushmuomala bo'lsin, bu kishining ziynati. - Epolmasachi? -Bunaqa tirik odamni kimga keragi bor! 1 Matematik zehnni o'stirishning eng samarali usuli tartorlashdir. Boshlang'ich sinflarda dastlab 10, 20 keyin 100 va 1000 ichida qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish kabi amlarga oid misollarni takror –takror yechish o'quvchi zehnni charxlayni bilimini oshirib, egallagan bilimlari ko'nikma va malakaga aylanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abdumurod Tilavov "Bolaga gap uqtirish san'ati" -T "Sano-standart" 2016
2. Ye.I.Perelman (Tarjimon: A.T.Xo'jaxonov) "Qiziqarli matematika" -T: "Sharq" 2016
3. Azimjon Qosimov "Aqlga quvvat bitiklar"-T "Yangi asr avlodii" 2014
4. Xolida Gulomoba , Tal'at G'afforov "Ona tili darsligi metodikasi" (1-sinflar uchun metodik qo'llanma")-T "Tafakkur" 2012



MATEMATIKA O'QITISHDA MASALALARING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI

Raxmatova Inobat Esonboyevna

Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7 -сонли умумий урта таълим мактабининг
математика фани укитувчиси

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika darslaridagi masalalarining bajaradigan vazifalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, funksiya, masala, misol, tenglama, kvadrat.

Hozirgi zamon didaktikasida A.D. Semushin, K.I. Neshkov va Yu.M. Kolyagin, J. Ikromov, T.To‘laganov va N. G‘aybullayev kabi metodist matematiklar matematika kursidagi masala va misollarning bajaradigan funksiyasini quyidagicha turlarga ajratishadi:

1. Masalaning ta’limiy funksiyasi.
2. Masalaning tarbiyaviy funksiyasi.
3. Masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi.
4. Masalaning tekshiruv xarakterdagi funksiyasi.

Masalaning matematika darsi jarayonida bajaradigan funksiyalarini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz. 1. Masalaning ta’limiy funksiyasi asosan maktab matematika kursida o‘rganilgan nazariy ma’lumot, matematik tushuncha, aksioma, teorema va matematik xulosalar, qonun-qoidalarning aniq masala yoki misollarga tatbiqi natijasida o‘quvchilarda mustahkam matematik bilim va malakalar hosil qilish orqali amalga oshiriladi. Maktab matematika kursidagi masala yoki misollarni yechish o‘quvchilarda matematik malaka va ko‘nikmalami shakllantiribgina qolmay, balki olingen nazariy bilimlami amaliyatga tatbiq qila olishini ham ko‘rsatadi. Agar o‘qituvchi kvadrat tenglama mavzusini o‘tib, uni mustahkamlash jarayonida kvadrat tenglamaga keltiriladigan masalalarни yechib ko‘rsatsa, o‘quvchilarni ana shu mavzu materiali yuzasidan bilimlari mustahkamlanadi hamda kvadrat tenglama tushunchasining tatbiqi haqidagi fikr o‘quvchilar ongida shakllanadi. 2. Masalaning tarbiyaviy funksiyasi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi hamda ularni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Bizga ma’lumki, matematika fanining o‘rganadigan obyekti materiyadagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o‘rganishdan iboratdir. Bas, shunday ekan, fazoviy forma bilan miqdoriy munosabatlarni bog‘lanish analitik ifodalangan formula bilan yoziladi. Ana shu formulani kundalik hayotimizdagi elementar masalalarни yechishga tatbiqi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Albatta o‘qituvchi bu yerda bilish nazariyasiga asoslangan bo‘lishi kerak. «Jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyatga borish kerak». O‘qituvchi matematika darsida yechiladigan masalalar orqali o‘quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashi lozim. Buning uchun o‘qituvchi halol va sifatlari mehnatni ulug‘laydigan masalalarini tanlashi kerak bo‘ladi.

3. Masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi o‘quvchilarni mantiqiy tafakkur qilish faoliyatlarini shakllantiradi. Bizga psixologiya kursidan ma’lumki, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qilish faoliyatları tafakkur operatsiyalari (taqqoslash, analiz - sintez, umumlashtirish, aniqlashtiish, abstraksiyalash va klassifikatsiyalash) orqali amalga oshiriladi. Maktab matematika kursidagi masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi o‘quvchilarni matematika o‘qitish metodikasining metodlaridan masala yoki misollarni yechish jarayonida to‘g‘ri foydalanish malakalarini rivojlantiribgina qolmay, balki ularni biror matematik hukm va xulosalar to‘g‘risida aniqlik yuritish imkoniyatlarini shakllantiradi hamda masalalar yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi. 4. Masalaning tekshiruv xarakterdagi funksiyasi o‘z ichiga quyidagilami oladi: 1) 0 ‘quvchilarning nazariy olgan bilimlari darajasi; 2) 0 ‘quvchilarning nazariy olgan bilimlarini amaliy xarakterdagi misol va masalalar yechishga tatbiq qilishi; 3) matematik hukmlardan xulosalar chiqarish darajalari; 4) 0 ‘quvchilarning matematik tafakkur qibiliyatlarini rivojlanish darajasi.

Adabiyotlat:

1. Alixonov S. «Matematika o‘qitish metodikasi». T., «O‘qituvchi» 1992



BOLANING NUTQIDA NUQSON BO'LSA

Zarifa Samiyeva

Samarqand viloyati Urgut tumani
121- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon; 998973938030

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qitish jarayonida asosiy vazifalardan biri nutq o'stirishdir. Birinchi siftda ,Alifbe'ni o'rgatish davrida harflar talaffuzi, so'zlarni bo'g'lnarga bo'lib o'rgatish, harf birikmalari ,ch', ,sh', ,ng' tutuq belgisi [], bundan tashqari ,h' va ,x' harflarini ajrata olish haqida ko'rgazmalar, rangli rasmlar hamda multimedialar asosida to'g'ri tushunchalar berilsa, buning samarasini yuqori bo'ladi.

Kalit so'zlar: nutq, psixologiya, boshlang'ich ta'lim, nuqson, rasmlli o'yinlar, mashg'ulotlar, nutq rivojlantirish.

Birinchi siftda qabul qilingan bolalar orasida nutqida nuqsoni bor o'quvchilar ham uchraydi. Ular ko'pincha ,P', ,Q', ,S', ,SH' kabi harflarni talaffuz qilishda qiynalishadi. Ular bilan boshlang'ich sinf o'qituvchisi, maktab psixologi bilan hamkorlikda maxsus o'yinli, nutq o'stiruvchi mashg'ulotlar olib borishi lozim.

1-4 sinflardagi ,O'qish' darslarini asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish, shu bilan birga, nutqni rivojlantirishdir. O'qigan yangi ertak, hikoya, she'rlarni ifodalash imkonli berilishi asosida nutq rivojlantirishdagi motivi ham shakllanadi.

O'quvchilarda og'zaki nutqni bayon qilish osonroq, lekin yozma nutqni bayon qilishda biroz qiyinalishi mumkin. Yozma nutqning rivojlantirish uchun ularni ona tili darslarida diktant yozishda chiroyli, bexato, to'g'ri bog'lanish qoidalariga rioya qilishga yo'naltirilsa, yuqori siftda ta'lim olishlari uchun yaxshi samara beradi.

Dars yangi kuzatishlar, tadbirlar, rangli rasmlar, kitob taqdimoti, rolli o'yinlar orqali olingan ma'lumotlar asosida tuzilsa, o'quvchi nutqi mazmunli bo'ladi. Shu bois ,Boshlang'ich sinf ta'lim fan oyligi' tadbiri doirasida maktabimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida ,Kitobim-ostobim' ,Biz al- xorazmiy izdoshlarimiz' ,Tabiat bag'rige sayohat' nomli tadbirlar, ,Hunar-hunardan rizqing unar' mavzusida insholar tanlovi, ,Qarisi bor uyning parisi bor' nomli sahnaviy chiqishlar o'tkazilishiga asosiy e'tibor qaratildi.

O'qituvchi bolalar bilan ishlashda ularning nutqini o'stirishga intilar ekan, diktant, bayon, insho uchun materiallarini puxta tayyorlash, har bir darsni ko'rgazmali vositalar asosida o'tishi lozim. Bunda o'quvchinig harakteri inobatga olinadi.

121- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanmoqda.

Men ham, masalan, ,R' harfi talaffuzida qiynalayotgan bolalar bilan ishlashda ,R' tovushiga oid materiallarni to'plab, shu asosda ish olib boraman. Bolaga ,-ar', ,-ir' talaffuzidan ko'ra ,-er', ,-o'r' talaffuzi osonroq . U nutqdan sirg'alib chiqayotgan tovush orqali ,R' harfini ,ertak', ,ertalab' kabi so'zlar orqali nutqiy mashqlar olib boraman. Shu so'zlar ishtirokida tez aytish, rangli rasmlar mazmunini so'zlab berish, diktant yozish, she'r yodlash asosida o'quvchi nutqi asta- sekin rivojlanadi.

Hozir o'qitayotgan sinfimda bir o'quvchim 1-sinfga qabul qilinganda ,K' , ,Q' harflarini ,T' deb tallafuz qilar edi.O'quvchi bilan ishlash jarayonida ,T' deb tallafuz qilar edi. O'quvchi bilan ishlash jarayonida ,Q' harfiga oid so'zlar bilan mashg'ulotlar olib bordim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. T.G'afforova. ,Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar', T.2011y
2. Uzviyylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi – T.2017y
3. Boshlang'ich ta'lim metodikasi jurnal
4. Ziyo.uz vep sahifasi



MAKTABGA QABUL QILINGAN OLTI YOSHLI BOLALAR UCHUN KORREKSION RIVOJLANTIRUVCHI MASHG'ULOTLAR

Shamsutdinova Ziyoda Maxsutovna
Alimova Nilufar Baxtiyorovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-maktabning psixologlari

Annotatsiya: Mazkur maqlada maktabga qabul qilingan olti yoshlar bolalar uchun korreksion rivojlanuvchi mashg'ulotlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Korreksion, rivojlanuvchi, mashg'ulot, diqqat, xotira, nutq, o'qish, yozish, ta'lif, tafakkur, iroda, malaka, ko'nikma.

Bola maktabga borgan paytdan boshlab moslashish jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Ko'pgina hollarda bolalar bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy moslashuvning shakllanmaganligi ta'lif jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hattoki aqlan yetuk, jismonan sog'lom bola ham maktab talablariga moslashishda qiynaladi. Bu talablar 1-sinfga qabul qilingan boladan ko'p mehnat va irodani talab qiladi. Shu bilan bir qatorda maktab amaliyotchi psixologi va sinf rahbari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda bolalarning maktab sharoitiga moslashish jarayonini o'rganish muhim sanaladi.

Hozir biz siz bilan olti yoshli bolalarning ta'lif olishlarida uchraydigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradigan korreksion rivojlanuvchi mashg'ulotlar majmui bilan tanishib chiqamiz.

Majmuadan o'rinni olgan mashg'ulotlar bolalarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozish malaka va ko'nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarning ta'lif talablariga munosib tabiiy shakl, o'yinlar yordamida rivojlanrib borishni ta'minlaydi. Har bir mashg'ulotni bajarish uchun ilovalar berilgan.

Mashg'ulotni o'tkazish jarayonida o'quvchilar bilan samimiyligi, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmasdan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini xolisona tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi.

Albatta, mashg'ulotni qo'llashda psixolog, pedagog, ota-onalar faqat ushbu mashg'ulotlar bilan cheklanmasdan psixologik xususiyatlardan kelib chiqgan holda qo'shimcha korreksion mashg'ulotlardan foydalanishlari ham mumkin.

Quyida keltirilgan mashg'ulotlar bolalarning fikrlashi, diqqat, xotira, nutq, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanirishga yordam beradi.

"Buni qanday qo'llash mumkin" – bolalarga imkon qadar ko'p hollarda ishlatilishi mumkin bo'lgan predmet nomini aytin. Har bir bola o'z uslubini taklif qilishiga erishing. Masalan; siz qalam so'zini aytishingiz mumkin. Uni ishlatish yo'llari turlicha bo'lishi mumkin: rasm chizish, yozish, ko'rsatgich sifatida va hakozo.

"Tovushlarni aniqla" – bolalar aylana bo'lib o'tiradilar. Bolalardan biri yetaklovchi bo'ladi. U boshqa o'yinchilarga nisbatan teskari turadi. Shu vaqt bolalardan biri qisqacha (2-3 so'zdan iborat) gap aytadi. Masalan, oltin tuz keldi. Yetaklovchi bu gapni kim aytganligini tovushidan aniqlashi kerak. Har bir bola yetaklovchi bo'lib chiqishi kerak.

"Xatolarni to'g'irlaymiz" – bolalar aylana bo'lib o'tiradilar. Olib boruvchi turli xatolari bo'lgan gapni aytadi. Bunday gaplar har bir bolaga taqdim etiladi. Qaysi bola gapda xato topa olmasa o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan bola g'olib hisoblanadi. Masalan, archa daraxtida olmalar pishadi. Osmonda uchta zog'ora baliq uchayapdi.

"Umumiylilikni izlash" – bolalar aylana bo'lib o'tiradilar. Olib boruvchi bolalardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan 2 ta so'zni aytadi. Masalan, mакtab va o'qituvchi, kitob va javon, quyosh va gul va hakozo. To'pni tutib olgan bola so'z juftligi orasida umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

"Kim sinchkovroq" – o'yin ishtirokchilari yarim doira bo'lib o'tiradilar va yetaklovchi tanlaydilar. Yetaklovchi 1- daqiqa ichida o'yin ishtirokchilarining joylashish tartibi eslab qolishi kerak. So'ng teskarisiga qarab ularni nomma-nom eslaydi. Har bir bola yetaklovchi bo'lib chiqishi shart.



“To‘rtinchisi ortiqcha” – bolalar aylana bo‘lib o‘tiradilar. Olib boruvchi biror bir bolaga to‘pni to‘pni otib, uchtasi bitta umumiyl tushunchaga ega bo‘lgan 4 ta predmet nomini aytadi. Bola shulardan bitta ortiqchasini aytib, to‘pni qaytarishi kerak. Masalan, kitob, daftар, qalam, deraza.

“Ayg‘oqchi” – biron bir bolani bir necha daqiqaga xonadan chiqib turishga taklif eting. Shu vaqtida xonada qolgan bolalar oralaridan bir bolani tanlab qo‘yadilar. Shundan so‘ng tashqaridagi bola kirib, o‘yinchilarga teskari turadi va tanlangan bolani tashqi qiyofasi bo‘yicha savollar beradi. Savollar soni 1-3 tagacha bo‘lishi mumkin. Savollarga javob olgandan so‘ng “ayg‘oqchi” bolalar kimni tanlaganini aytib berishi kerak. Har bir bola ayg‘oqchi bo‘lib chiqishi mumkin.

“Kim ko‘p” – bolalarga bir daqqa davomida xonani aylanib, atrofni kuzatish taklif etiladi. Asosiy vazifa doira shaklidagi predmetlarni topib, ularni eslab qolishdan iborat. So‘ng barcha bolalar aylana shaklida o‘tiradilar va navbatma – navbat eslab qolgan predmetlarning nomini aytishadi. Bironta ham so‘z ayta olmagan bola o‘yindan chiqadi. Oxirida doira shaklidagi predmet nomini aytgan bola g‘olib deb topiladi.

Bolalarning og‘zaki nutqini, predmetlarni guruhlashtirishni, umumlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar.

“Jumlanli tugat” – bolalar aylana bo‘lib o‘tiradilar. Boshlovchi ularning biriga koptokni otadi va jumlaning boshlanishini aytadi. Koptokni olgan bola gapni tugatishi va koptokni boshlovchiga qaytarishi kerak.

O‘yin shu tariqa davom etadi. Ikki marta o‘yinni tugata olmagan bola o‘yindan chiqadi va boshqalarni diqqat bilan kuzatib turadi.

Kechasi qorong‘i, kunduzi esa

Qishda sovuq, yozda esa

Qush uchadi, ilon esa

Ertalab nonushta qilamiz, kunduzi esa

Xo‘roz qichqiradi, mushuk

“Buzilgan telefon” - mazkur o‘yin o‘quvchilarning eshitish sezgisini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar aylana bo‘lib o‘tiradilar. Birinchi partadagi o‘quvchining qulog‘iga sekin bir so‘z aytildi. Oxirgi partada o‘tirgan o‘quvchi shu so‘zni baland ovoz bilan aytishi kerak bo‘ladi. Agar so‘z to‘g‘ri aytigan bo‘lsa, telefon yaxshi ishlaydi. So‘z xato aytilsa, telefon buzilgan, uni tuzatish kerak, ya‘ni telefon qayerda buzilganligi aniqlanadi.

“Ta‘midan top” - maqkur mashg‘ulot o‘quvchilarning sezgi va idrokini o‘stirishga qaratilgan. Stol ustiga to‘g‘ralgan meva va sabzavotlar likopchada qo‘yiladi. O‘quvchilar diqqat bilan o‘tirishadi. O‘qituvchi bolalarga likopchalarda meva yoki to‘g‘rab qo‘yilgan sabzavotlardan totib ko‘rib, ta’mini aytib berishini taklif etadi. Shundan so‘ng o‘quvchilardan biri ko‘zlarini yumib turadi, ikkinchi o‘quvchi uni mehmon qiladi. Bola mevaning ta’mini totib ko‘rib, uning nomini aytib beradi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning sezish, idrok qilish jarayoni rivojlanadi.

“Nima o‘zgardi” – stol ustiga yoki doskaga bir necha rasm qo‘yiladi. Bolalarga rasmlarni yaxshilab ko‘rishlari va eslab qolishlari aytildi. Keyin bolalar ko‘zlarini yumib turadi, shu vaqtida rasmning bir yoki ikkitasining o‘rni o‘zgartirib qo‘yiladi.

Savol: Nimaning joyi o‘zgardi? Bola shuni topib, eslab qaysi rasmning o‘rni o‘zgarganini aytishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktab psixologlari va boshlang‘ich sinf rahbarlari yuqoridagi kabi mashg‘ulotlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘llasalar, o‘quvchilarning aqliy tafakkuri, xotirasasi, diqqati rivojlanadi va kelajakda yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Nishanova Z.T, Xalilova N.I. Psixokorreksiya – T.: 2006
2. Nishanova Z.T Psixologik xizmat - T.: 2005
3. Qo‘ziboyeva S. Kichik maktab yoshida psixologik xizmat: asosiy faoliyat va vazifalari. Kurs ishi. Nukus. 2015.



БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ОТ СҮЗ ТУРКУМИНИ ЎРГАНИШ

Тешаева Нодира Исломовна,
Навоий шаҳар Қизилтепа тумани
27-мактаб бошланғич синф ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада от сўз туркуми, сифат сўз туркуми ҳақида маълумот берилган ва уни ўрганиш ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: грамматик тушунча, эгалик қўшимчаси, грамматик белги, хусусият, лексик маъно, лингвистик хусусият, предмет, морфологик таҳлил.

«От» мавзусини ўрганиш тизими мақсадга йўналтирилган жараён бўлиб, бунда шу сўз туркумининг умумлаштирилган маъноси ва грамматик белгилари аниқ изчиликда, бир-бири билан илмий асосланган боғлиқликда ўрганилади, шунингдек, отдан нутқда тўғри фойдаланиш ва тўғри ёзиш малакасини шакллантириш мақсадида бажариладиган машқлар аста мураккаблаштира борилади. Тил ҳодисаси сифатида отнинг хусусиятлари, уни ўрганиш вазифалари, ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, ҳар бир синф учун материал ҳажми, уларни ўрганиш изчилиги белгиланган. Бошланғич синфларда отни ўрганиш вазифалари кўйидагилар: 1) «от» ҳақидаги грамматик тушунчани шакллантириш; 2) ким? сўроғига жавоб бўлган (шахс билдиран) отлардан нима? сўроғига жавоб бўлган (нарса, ҳайвон, жонивор ва бошқаларни билдиран) отларни фарқлаш кўникмасини ҳосил қилиш; 3) кишиларнинг фамилияси, исми, отасининг исми, ҳайвонларга кўйилган номлар ва географик номларни бош ҳарф билан ёзиш кўникмасини шакллантириш; 4) отларда сон (отнинг бирлик ва кўпликда кўлланиши) билан таништириш; 5) отларни эгалик қўшимчалари билан тўғри қўллаш кўникмасини шакллантириш; 6) отларнинг келишиклар билан турланиши ва келишик қўшимчаларининг ёзилиши ҳақида малака ҳосил қилиш; 7) ўқувчилар луғатини янги отлар билан бойитиш ва улардан нутқда аниқ, ўринли фойдаланиш малакасини ўстириш; 8) сўзларни таҳлил қилиш, таққослаш, умумлаштиришни билиш. Бу вазифаларнинг ҳар бири алоҳида эмас, балки бир-бири билан ўзаро боғлиқ ҳолда ҳал этилади. Сўз туркуми сифатида от муайян лексик маънолари ва грамматик белгилари билан ажralиб туради. Барча отларнинг умумий лексик маъноси шахс ва нарсани ифодалаш ҳисобланади. От жонли мавжудотлар (киши, қуш, ҳайвон, асалари), ер ва осмонга оид нарсалар (куёш, ўлдуз, дарё, тоғ), ўсимликлар (пахта, беда, гул), воқеалар (йиғин, мажлис), табиат ҳодисалари (шамол, бўрон, ёмғир, момақалдирок), белги-хусусият (аҳиллиқ, кучлилиқ, самимият), ҳаракат-ҳолат (уйқу, севинч, кураш), ўрин ва вакт (ёз, баҳор, жой) номларини билдиради. Отларнинг грамматик белгилари: отлар бирлик ва кўпликда кўлланади, эгалик қўшимчалари билан ўзгаради, келишиклар билан турланади, гапда кўпроқ эга, тўлдирувчи, аниқловчи, шунингдек, ҳол ва кесим вазифасида келади. От нутқда сифат, сон, олмош, феъл билан бирика олади. Отнинг маънолари ва грамматик белгилари хийла мураккаб, шунинг учун ҳам от ҳақидаги билим ўқувчиларда амалий вазифаларни бажариш жараёнида аста шакллантира борилади.

Сифатни ўрганиш тизими материални лексик ва грамматик томондан изчилик билан бойитиб, мураккаблаштириб боришни кўзда тутади. Ўқувчилар 1 ва 2 синфда сифатнинг лексик маъносини кузатадилар, сифатга қандай?, қанақа? сўроғини беришга ўрганадилар; 3 синфда сифат сўз туркуми сифатида ўрганилади; 2-синфда илгари ўрганилганлар тақрорланиб, грамматик материалга боғлиқ ҳолда қип-қизил, ям-яшил каби орттирма даражадаги сифатларнинг ёзилиши ўргатилади. Она тили ва ўқиши дарсларида ўқувчилар нутқи янги-янги сифатлар билан бойитилади, уларга олдиндан маълум бўлган сифатларнинг маъносига аниқлик киритилади. Сифатни ўрганиш методикаси унинг лингвистик хусусиятларига асосланади. Сифат предметнинг белгисини билдиради. Сифатнинг лексик маъноси уни от билан боғлиқ ҳолда ўрганишни талаб қиласиди. Сифатни тушуниш учун 1-синфданоқ ўқувчилар эътибори сифатнинг отга боғланишини аниқлашга қаратилади. Ўқувчилар предметнинг белгисини айтадилар, уларда сўроқ ёрдамида гапда сўзларнинг боғланишини аниқлаш кўникмаси ўстирилади, яъни улар гапдаги сифат ва отдан тузилган сўз бирикмасини ажратадилар. Кейинги синфларда бу боғлиқлик аниқлаштирилади. Шундай қилиб, сифатнинг семантик-грамматик хусусиятлари сифат устида ишлашни лексик ва грамматик



(морфологик ва синтактик) равища олиб боришни талаб этади.

Бошланғич синфларда «Сифат» мавзуси қуидаги изчилликда ўрганилади:

- 1) сифат билан дастлабки таништириш (1, 2-синф);
- 2) сифат ҳақида тушунча бериш (3-синф);
- 3) шу грамматик мавзу билан боғлиқ ҳолда айрим сифатларнинг ёзилишини ўзлаштириш (2-синф).

Сифат билан (атамасиз) дастлабки таништириш сифатнинг лексик маъноси ва сўроқлари устида кузатиш ўтказишдан бошланади. Предметнинг белгилари хилма-хил бўлиб, уни ранги, мазаси, шакли, хил-хусусиятлари томонидан тавсифлайди. Шундай экан, сифат тушунчасини шакллантириш учун унинг маъноларини аниқлаш талаб этилади. Ўқитувчи предметни ёки унинг расмини кўрсатади, ўқувчилар унинг белгиларини айтадилар ва ёзадилар. Масалан, (қандай?) олма - қизил, ширин, юмалоқ олма; (қандай?) ип - узун, қўк ип. Албатта, сухбат асосида ўқувчилар олма, ип сўзлари нима? сўроғига жавоб бўлиб, предмет номини билдириши, қизил, ширин, юмалоқ каби сўзлар қандай? сўроғига жавоб бўлиб, предметнинг белгиси (ранги, мазаси, шакли)ни билдиришини аниқлайдилар. Бу дарсларда кўргазма воситалардан кенг фойдаланилади. Ўқувчилар қандай?, қанақа? сўроқларига жавоб бўлган (предмет белгисини билдирган) сўзларни ўзлаштиришлари учун машқнинг қуидаги турлари самарали ҳисобланади: 1) сўроқ ёрдамида предметнинг белгисини билдирган сўзларни танлаш; 2) аралаш берилган сўзлардан гап тузиш; 3) матндан ким? ёки нима? сўроғига жавоб бўлган сўзни ва унга боғланган қандай? ва қанақа? сўроғига жавоб бўлган сўзни танлаб (сўз бирикмасини топиб) айтиш ва ёзиш; 4) таянч сўзлар ва расм асосида гап ёки кичик ҳикоя тузиш. Кейинчалик «сифат» тушунчасини шакллантириш ҳамда ўқувчилар нутқини янги сифатлар билан бойитиб бориш, фикрни аниқ ифодалаш учун мазмунга мос сифатлардан нутқда ўринли фойдаланиш кўникмасини ўстириш ҳал қилинади.

Адабиётлар:

1. А.Ғуломов. Она тили ўқитиши принциплари ва методлари. Т.: Ўқитувчи, 1992.
2. Махмудов М. Мактабда муаммоли таълимни ташукил қилиш. Тошкент: Ўқитувчи, 1998.
3. Гаффарова Т. Интерфаол методлар-таълим самарадорлиги. «Бошланғич таълим» журнали. № 6. 2008.
4. Хафизова И. Кўргазмалилик – дарс самарадорлиги. «Бошланғич таълим» журнали. 2006. № 11.
5. Қосимова К. ва бошқалар. Она тили ўқитиши методикаси.-Т.: Ношир, 2009.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI EVRISTIK FAOLIYATNI TEXNOLOGIYALASHTIRISH

Xodjayeva Gulnora Ganiyevna

Farg'ona shahar, 9-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
To'xtasinova Gulmira Sidiq qizi
Farg'ona davlat universiteti
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish bolalarning ijodiy qobiliyati qanday bo'lsa shu qadar zaruriy va qonuniy jarayondir. Yagona o'quv mashg'uloti, o'quv kursi bo'yicha tizimli mashg'ulotlar, evristik yo'naltirilgan faoliyat asosida sodir bo'ladi. Evristik vaziyatlar yaratish va rivojlantirish bo'yicha texnologik harakat-bolalar ijodkorligi natijalarini ta'minlash yo'li bo'lganligi sababli ushbu maqolada evristik vaziyatlar tayyorlash va o'tkazish bo'yicha o'qituvchilar uchun texnologik yo'l-yo'riqlar haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: Evristik vaziyat, konkret induktiv metod, abstrakt-deduktiv metodi.

Evristik faoliyatning quyidagi yo'l-yo'riqlari mavjud:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta'limiy ob'ektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an'ana, buyum va boshqalar). Bunda ob'ekt va bolalar uchun qiziqarli bo'lgan muammoni aniqlash; bolalarga ularning o'r ganilayotgan ob'ekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo'yicha o'ylashga yo'naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o'quvchilarning qo'yiladigan ta'limiy natijalari taxminlanadi.

2. Bolalarga yechimi noma'lum bo'lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sifda ta'limiy ko'tarinkilik hamda o'quvchilar topshiriqni bajarish orqali o'zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo'ladi.

Topshiriqning ta'riflanishi muammoni jamoa bo'lib muhokama qilishning natijasi bo'lishi mumkin. Bolalar tomonidan ta'riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o'qituvchi uchun yangilik bo'lsagina maqsadga erishilgan bo'ladi.

3. O'quvchining o'zi paydo bo'lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish. Evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta'lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

4. O'quvchilarning ta'limiy ijod namunalaring namoyish etish: she'rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta'riflar, ramzlar, rasmlar, loyi halar va shu kabilarni jamoaga muhokama etib, ko'rgazmalar tashkil etish, o'zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish.

5. Ta'limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta'riflar, olimlarning fikrlari, darsliklaridagi ma'lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

6. Bolalarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo'yicha faoliyatini tashkil etish. O'quvchilar tomonidan o'z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o'z nuqtai nazarlarining o'zgarish sababalrini tushunishlarida ko'maklashiladi. Ta'limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta'minlanadi.

7. O'quvchilarning bilishga oid qo'llanilgan usullarni, paydo bo'lgan muammo va uni yechish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritish, tahlil etish. O'quvchilarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko'maklashishi. Jamoa bo'lib yaratilgan ta'limiy natijalarini aniqlash.

Izlanuvchi ta'limiy vaziyatlarning davomiyligi o'zgarib turadi, ular o'zaro aloqadagi vaziyatlar zanjiri ham bo'lishi mumkin. Izlanuvchi vaziyatlar tamoyillarida izlanuvchi ta'limni tashkil etishdarajasi:

Boshlang'ich ta'lim dasturlari, o'qitilayotgan o'quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4- sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan o'quv materiallarini to'g'ridan -to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsa-da, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Og'zaki so'rash; yozma ishlarni o'tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarning «O'qish» darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish



uchun o‘quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o‘rganilishi va o‘qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar avval o‘qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o‘rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalari aniqlaydilar, so‘ngra o‘qituvchi rahbarligida ta’rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo‘li ayniqsa quyi sinflarda o‘z samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yo‘l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo‘ladi, buning natijasida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatları shakllanadi.

Ijodiy faollikni shakllantirishning abstrakt-deduktiv metodi.

Bunda o‘rganiladigan tushuncha uchun ta’rif tayyor ko‘rinishda oldindan konkret misol va masalalar yordamida tushuntirilmasdan kiritiladi. Masalan, 4-sinflarga mo‘ljallangan «O‘qish» o‘quv predmetida keltirilgan Husayn Voiz Koshifiyning «Salomlashish odobi» (2-chorak), Jonatan Swiftning «Gulliverning sayyohatlari»(3-chorak), Nizomi Aruzi Samarcandiyning «Sulton Mahmud va Beruniy» (4-chorak), Xondamir qalamiga mansub «Tanbeh» kabi hikoyatlar abstrakt-deduktiv metod orqali quyidagicha taqdimot qilishni tavsya etamiz.

Taqdimotda nimaga yo‘l qo‘yilmaydi:

- Holatni tasvirlash va uni qayta so‘zlab berishga;
- Ishtirokchilarning so‘zga chiqishlaridagi qarama-qarshiliklarga;
- Tushunmaysiz, noaniq, o‘rinsiz iboralarga.

O‘ylab ko‘ring va guruhda taqdimotni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlarini muhokama qiling.

Taqdimotni muvaffaqiyatli o‘tkazish qoidalari va sirlariga asoslanib quvchilarning o‘z ish natijalarini taqdimoti samarali o‘tkazildi.

Yoki 4-sinfning «Odobnama» darsida «So‘z – noyob gavhar» ertagini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar «andisha nima?», «andishali inson fazilatlari qaysilar?» kabi savollarga javob berish uchun innovatsion metodlardan biri klasterdan foydalanildi(-jadval). Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy faoliyat yuritishga yo‘naltirildilar. Ular ertak asosida ijodiy fikrlashga harakat qilishib, darsning oxirida o‘zlar mustaqil ravishda «So‘z-noyob gavhar» ertagidan hissa chiqarishga musharraf bo‘ldilar. Andishasiz gaplar: jismoniy aybini topib yuziga solish, dag‘al gap, o‘ylamay gapirish kabi xususiyatlarga oid misollar topishdi, shu mavzuga taalluqli maqollarni saralashdi. Klasterni tuzishda quyidagi qoida o‘quvchilarga dasturilamal bo‘ldi. Avvalambor o‘quvchilar andisha so‘zi yuzasidan aqliga kelgan barcha fikrlarni yozdilar. G‘oya sifatini muhokama qilmay, ofografiya va boshqa omillarga e’tibor bermay, ajratilgan vaqt tugaguncha tuzilgan klaster bolalarda ijodiy fikrlashga zamin yaratdi G‘oyalalar soni, ular oqimi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik chegaralanmagandan so‘ng o‘quvchilar o‘z fikrlariga erk berishdi. Darsdagi ko‘tarinkilik ruhi o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. Ammo umumiy o‘rta ta’lim maktabalaridagi tadqiqot doirasidagi mavjud ahvol o‘rganilganda, mакtab o‘quvchilari har doim ham mazkur metodlardan to‘laqonli foydalanishmayapti.

Maktablardagi mavjud ahvol o‘rganilganda, ilg‘or o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv-uslubiy ishlarida zamonaviy metodlar orqali o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirishga harakat qilishadi, biroq ularning harakatlarida har doim ham yetarlicha o‘quvchi shaxsini ijtimoiylashtirishga, unda erkin fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga, quyilgan masala yechimini ijodiy topishga undash motivi kuzatilmaydi.

Ma’lumki, o‘qish orqali bilishga pedagoglar eshitishni, ko‘rish, motor-harakat, sezish organlarini, ba’zida esa hid sezishni ham ishtirok ettirib, o‘quvchilarni ob’ektiv reallikni bilishga jalb kiladilar, bunda jonli mushohada, abstrakt tafakkur va amaliyot uzviy qo‘shilib ketadi. SHuning uchun ham o‘qish jarayoni bevosita yoki bavosita shaklida ta’lim vositalari va pedagogik imkoniyatlar orqali sodir bo‘ladigan o‘ziga xos jarayon hisoblanadi. Demak, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati metodlarini ham o‘qitishning o‘ziga xos sharoitlarida qo‘llaniladigan bilish metodlarining turidir, deb hisoblashga hamma asoslar bor.

O‘quv faoliyati metodlarini bilish metodlari bilan qiyoslashdagi o‘ziga xos xususiyat shundan iboratki, o‘qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarini ijodiy o‘zlashtirish vazifasi hal qilinadi. O‘qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo‘lgan sinab ko‘rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha



«engillashtirilgan» sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o‘quv faoliyati metodlari bilish operatsiyalari bilan qo‘sib olib boriladigan o‘quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilgan. O‘quv faoliyati metodlarni hosil qilish uchun ko‘plab yillar sarflangan o‘quv axborotini bilishga qisqaroq yo‘lni topib beradi. Ular o‘quvchilarning yosh xususiyatiga bevosita holda bog‘liq bo‘ladi. O‘quv faoliyati metodlarining o‘ziga xos xususiyati mana shunda ham namoyon bo‘ladi.

Dars berish metodlari o‘rganish metodlarini, o‘qish-bilish faoliyatining jarayonini faollashtirishga yo‘llab, uni kuchaytiradi.

Maktablardagi amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda fikrlar ketma-ketligi va bog‘liqligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 4-sinfning 4-choragida «O‘qish» o‘quv predmetida o‘rganiladigan Xans Kristian Andersennenning «Bolalar gurungi» ertagiga atab chizilgan rasmlar, mini-hikoyalari bolalarda ijodiy tasavvurni kengaytirishga zamin yaratadi. Ushbu ertakning sahnalashtirilgan ko‘rinishi esa ularni ijodiy faollikka undaydi.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Adizov B.R.Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.- Toshkent: Fan, 1997.
2. Azizzodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo.-T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006.
3. Bikvayeva N.I., ye.YAngabayeva Matematika 3-sinf T., 2004 yil.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. T., O‘zbekiston
5. Dik N. F. Vospitivayem lichnost . Feniks, 2005



XALQ HUNARMANDCHILIGI TEXNOLOGIYASI BO'LIMINI O'QITISHNI TASHKIL QILISH

Toshpo'Latova Shahnova Xusniddinovna

Наманган вилояти Уйчи туманидаги

30 -сонли умумий урта таълим
мактабининг технология фани укитувчиси

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya darslaridagi xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo'lmini o'qitishni tashkil etish haqida.

Kalit so'zlar: texnologiya, o'quvchi, dars, ta'lim, bo'lim, o'qitish.

Badiiy idrok qobiliyati kishilarda, o'quvchilarda olamni, undagi mavjudodlar, narsalar va voqe-a-hodisalarini, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarning turfa shakl-shamoilida aks ettirishga havas uyg'otadi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va o'z navbatida odamlarning kundalik turmushidan o'rinn ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning turli-tuman shakllari va turlari paydo bo'ldi. Boshqa san'atlarga nisbatan, bunday naqshli bezaklar ko'pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma'lumki, islam mamlakatlarida mavjudodlar tasviri ishlanmagan, balki, tasviriy san'atga chuqur falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stillashtirish, rasmiylikka asoslangan badiiy bezak asarlarini yaratish kuchaygan. Uning negizida murakkab, izlanuvchan, ijodkorlik mehnati mavjud. Misol uchun: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi me'morchilik va xalq amaliy san'ati yodgoriiklari o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan beba bo san'at asarlarining namunalari bo'lib, xalqimizning va shu bilan jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosini tashkil etilganidan xabardor bo'lamiz. Shu bilan birga maktab o'quvchilarini xalq hunarmandchilik sohasidagi tarmoq va kasblarga xos mehnat asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirmoqdalar: nonvoychilik, o'tov tayyorlash, oshpazlik, milliy o'yinchoqlar tayyorlash, ot-ulov anjomlari tayyorlash, kosibchilik, imoratsozlik va boshqa mehnat turlarini o'rganishga jalb etilmoqda. Xalq hunarmandchiligi turlaridan naqqoshlik san'ati va ularda qo'llanadigan asbob-uskunalar, texnologiyalar. Xalq amaliy san'atining eng keng tarqalgan ommaviy turlaridan biri naqqoshlikdir. Naqqoshlik amaliy san'ati O'zbekistonda juda qadimdan mavjud bo'lib, ayniqsa, XVII—XIX asrlarda keng rivoj topa boshladi. Avvallari naqsh bilan masjid va madrasalar, boy zodagonlarning uylari (ship, ustun, devor) bezatilar edi. Bu davrda me'morchilik naqshlari o'z qonun-qoidalari hamda bezash uslu-blariiga, o'ziga xos ranglar uyg'unligiga va mustaqil naqsh tuzilishiga ega edi. Naqqoshlik darsini tegishli fan o'qituvchisi yoki naqqosh ustalar olib borishi lozim. Naqqoshlik hunari darsini yaxshi olib borish uchun o'qituvchi zamонавиј didaktikani yaxshi bir ishi va uni amalda ijodiy qo'llay olishi kerak. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'lim va tarbiyaning birlik tamoyili.
2. Ta'limning ilmiy bo'lish tamoyili.
3. Ta'limda ko'rgazmalilik tamoyili.
4. Ta'limda onglilik va aktivlik, mustaqillik tamoyili.
5. Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi tamoyili.
6. Ta'limda ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili.

Bu borada ta'kidlash zarurki, o'quvchi maktabni bitirib qaysi kasbda ishlamasin, bir hunar egasi bo'lib qoladi. Bu hunar orqali kelajakda o'z iqtisodini vaxshilashi mumkin, shu hunar orqali ilm o'rganishi mumkin. Bundan tashqari kelajakda bu bolada madaniyat va san'atdagi, hayotdagi go'zalliklarni sezalish, bu go'zallikni yarata olish ko'nikma va malakalari shakllanadi. Naqshlarni o'qishni o'rganadi, go'zallikdan bahra olishga o'rgatadi. Xullas, o'quvchilar voqelikka to'g'ri baho berishga va undan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Adabiyotlar:

1.N. Sayidaxmedov. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. — Toshkent: RTM, 2000.



ADABIYOT DARSLARIDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

Toshtemirova Dilbar Bozarovna
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
qoshidagi akademik litseyi
Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
+998-97-747-99-79

Annotatsiya: Adabiyot darslarini hamkorlikda o'qitishdagi ba'zi masalalar ushbu maqolada qamrab olingan. Pedagogik hamkorlik ta'limga subyektlari faoliyatining tadrijiy yo'lini namoyon qiladi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyati uyg'unlashib, ijodiy xarakter kasb etadi. U ta'limga jarayoni subyektlaridagi har bir o'ziga xos jihatni hisobga olishni taqozo qiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik hamkorlik, ta'limi muammo, hamjihatlik ko'nikmalari, didaktik vaziyatlar, an'anaviy pedagogik tafakkur

Zero, o'quv-biluv jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi markazida subyektlar orasidagi hamkorlik yotadi. O'quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlik subyektlarning birligida yangi axborotlarni o'zlashtirishlari va ularni o'z faoliyatlarida ijodiy qo'llashlariga ko'maklashadi. Pedagogik hamkorlik, avvalo, bilimlarni o'zlashtirishda jamoa bo'lib faoliyat ko'rsatishni nazarda tutadi va uning asosiy maqsadi - ishtirokchilarning his-tuyg'uga asoslangan obrazli tafakkurini shakllantirishdir. Bu serqirra usuldan murakkab didaktik-ijodiy masalalarni yechish, pedagogik amaliyotda esa o'quv-biluv muammolarini hal etish yo'li sifatida foydalaniadi. Bu usul o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi mo'ljallangan o'quv materialiga ijodiy yondashish imkoniyatini kengaytiradi. Pedagogik hamkorlik jarayonida jamoa bo'lib ishslash guruvida mavzu doirasida yangi mushtarak g'oyalar tug'ilishiga zamin hozirlaydi. Tabiiyki, pedagogik hamkorlik texnologiyasi ta'limga jarayonida samaradorligi sinalgan ilg'or metodlardan foydalinishni taqozo etadi. Ta'limga jarayonida ulardan vaqt va o'rnida foydalansila, o'quvchining izlanuvchanlik qobiliyati muntazam rivojlanib borayotganini payqash mumkin. Hamkorlikda ishlaganda qo'yilgan muammoning yechimiga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalinish o'quvchilarni yangi farazlar, his-tuyg'uga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi va bunga ma'lum miqdorda erishiladi ham. O'quvchilar o'z ijodiy qibiliyatlarini namoyon qilishga odatlanib boradilar. Ta'limi ishlarni hamkorlikda tashkil etishda quyidagi asosiy holatlar mujassamlashadi:

- 1) ta'limi muammoning o'quvchi muhokamasiga dastlabki ko'rinishda qo'yilishi;
- 2) o'quvchida ta'limi muammoning tahlili va buning uchun zarur bilimlar haqida tasavvur uyg'otish;
- 3) ta'limi muammoni yechish imkoniyatlarini aniqlash va chegaralash;
- 4) o'quvchi ongida uning shaxsiy dunyoqarashi va ilmiy-amaliy tushunchasi doirasida muammoni qayta shakllantirishga erishish;
- 5) qayta shakllantirilgan muammo variantlaridan qulayini tanlay olish;
- 6) hamkorlik uchun asosiy bo'lgan bosqichlardan o'tish;
- 7) qo'yilgan muammo yechimi talablariga asoslangan holda yondashuvlar yoki tayyor javoblarni bayon qilish.

Hamkorlik asosida o'rganishda e'tibor subyekt sifatida muayyan o'quvchi emas, balki o'quvchilar guruhiga qaratiladi. Bunday jarayonning xarakterli jihatni izlanuvchanlik faoliyatining birligida amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam birligidagi harakat vujudga keladi, hamkorlikka oid ishlab chiqilgan qat'iy talablar uni o'quv jarayonida to'g'ri amalga oshirilishiga asos bo'ladi. Mazkur murakkab va serqirra texnologiyadan ko'zlangan maqsad yo'lida foydalinish o'qituvchidan yuksak darajadagi bilim, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mahorat va fidoyilikni talab qiladi. Agar ta'limga beruvchida shu jihatlarning birortasi yetishmasa yoki qaysidir jihatida «kemtik»lik sezilsa, mazkur jarayon o'rganish faoliyatiga aks ta'sir ko'rsatishi ham hech gap emas. Pedagogik hamkorlikning o'ziga xos jihatlaridan yana biri har xil ta'limi sharoitlarda turlicha tabiatga, dunyoqarashga ega bo'lgan subyektlar imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishidadir. Bu sohadagi dastlabki yondashuvlar shuni ko'rsatadi, pedagogik hamkorlikka oid konsepsiylar murakkab, muntazam bo'limgan ochiq



- знакомство с государственными символами (гербом, флагом, гимном) и дальнейшее их использование;

- воспитание любви и хорошего бережного отношения к окружающему миру, природе;

- изучение истории родной страны, ее географии и литературы;

- формирование и развитие интереса к культуре, традициям, обычаям родного народа.

2) Воспитание гуманизма – нравственного отношения к другим людям, основанное на мировоззрении человека; мировосприятия, т.е. уважения к другому человеку, дружелюбия



и доброжелательности, готовности прийти на помощь; терпимости, предполагающей понять слабости и затруднения другого человека, прощать его.

3) Воспитание бережного отношения к природе – тоже рассматривается как часть общественных отношений. Бережное отношение к природе – забота о ее сохранности, правильное использование ее ресурсов, защита природных богатств.

Духовно-нравственное воспитание личности - это залог, личного и общественного благополучия. Развитие духовности и нравственности делает осознанным процесс постижения научных знаний, умений и навыков.

Список литературы:

1. Коменский Я. А. Учитель учителей: Избранное: учебное пособие. М.: Издательский дом «Карапуз», 2008.
2. Подласый И. П. Педагогика: Учеб. для высш. учеб. заведений - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2006. – кн.1: Общие основы. Процесс обучения. – 387 с.



ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ГРАМОТНОГО ПИСЬМА

Исмагилова Зульфира Сагатдиновна,
Учитель начальных классов школы № 18

Современного ученика чрезвычайно трудно мотивировать к познавательной деятельности, к поиску пути к цели в поле информации и коммуникации. Происходит это потому, что дети часто испытывают серьёзные затруднения в восприятии учебного материала по всем школьным предметам.

Причина этого - в недостаточно высоком уровне развития мышления и, прежде всего, критического. Критическое мышление, творческое, помогает человеку определить собственные приоритеты в личной и профессиональной жизни, предполагает принятие индивидуальной ответственности за сделанный выбор, повышает уровень индивидуальной культуры работы с информацией, формирует умение анализировать и делать самостоятельные выводы, прогнозировать последствия своих решений и отвечать за них, позволяет развивать культуру диалога в совместной деятельности.

Основные методические приёмы: -Инсерт; - Кластер; -»Знаем - Хотим узнать - Узнаем» интерактивная стратегия (З-Х-У); -Синквейн; -Дискуссия, -Эссе, -Мозговая атака

ИНСЕРТ. -звуковой аналог условного английского сокращения в

дословном переводе обозначает: «*insert*»-интерактивная система записи для эффективного чтения и размышления. Прием осуществляется в несколько этапов.

I -этап: -Предлагается система маркировки текста, чтобы подразделить заключенную в нем информацию следующим образом:

V «галочкой» помечается то, что уже известно учащимся;

- знаком «минус» помечается то, что противоречит их представлению;

-+ знаком «плюс» помечается то, что является для них интересным и неожиданным;

? «вопросительный знак» ставится, если что-то неясно, возникло желание узнать больше.

- II- этап

- читая текст, учащиеся помечают соответствующим значком на полях отдельные абзацы и предложения.

-Знакомство с текстом может осуществляться «на слух».

-III -этап

- Учащимся предлагается систематизировать информацию, расположив ее в соответствии со своими пометками в следующую таблицу:

V	+	-	?

Этапы инсера соответствуют трем стадиям: вызов, осмысление, рефлексия.

IV -этап

- Последовательное обсуждение каждой графы таблицы.

- Предметная область использования: преимущественно научно-популярные тексты с большим количеством фактов и сведений.

- Прием способствует развитию аналитического мышления, является средством отслеживания понимания материала.

Мозговая атака.

1- этап: Учащимся предлагается подумать и записать все, что они знают или думают, что знают, по данной теме;

2- этап: Обмен информацией. Рекомендации к эффективному использованию:

- Жесткий лимит времени на 1-м этапе 5-7 минут;

- При обсуждении идеи не критируются, но разногласия фиксируются;

- Оперативная запись высказанных предложений.

Возможна индивидуальная, парная и групповая формы работы. Как правило, их проводят последовательно одну за другой, хотя каждая может быть отдельным самостоятельным способом организации деятельности.

Примечание: парная мозговая атака очень помогает учащимся, для которых сложно



высказать свое мнение перед большой аудиторией.

Обменявшись мнением с товарищем, такой ученик легче выходит на контакт со всей группой. Разумеется, работа в парах позволяет высказаться гораздо большему числу учащихся.

Групповая дискусси. Дискуссия (от лат.) – исследование, разбор, обсуждение какого-либо вопроса. Учащимся предлагается поделиться друг с другом знаниями, соображениями, доводами. Обязательным условием при проведении дискуссии является:

- А) уважение к различным точкам зрения ее участников;
 - Б) совместный поиск конструктивного решения возникших разногласий.
- Групповая дискуссия может использоваться как на стадии вызова:
 - обмен первичной информацией, выявление противоречий, так и на стадии рефлексии:
 - это возможность переосмыслиния полученных сведений, сравнение собственного видения проблемы с другими взглядами и позициями.

Форма групповой дискуссии способствует развитию диалогичности общения, становлению самостоятельности мышления.

Ученики не сидят пассивно, слушая учителя, а становятся главными действующими лицами урока, они думают и вспоминают, делятся рассуждениями друг с другом, читают, пишут, обсуждают прочитанное.

Использованная литература:

1. Колеченко А.К. Энциклопедия педагогических технологий: Пособие для преподавателей. – СПб.: КАРО, 2005 -368с.
2. Фарберман Б.Л, Мусина Р.Г, Джумабаева Ф.А. Современные методы преподавания в вузах. – Т.: 2001-156с.



БАРКАМОЛ ШАХС ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Қуллиева Нигора Сайфулло қизи,

Навоий вилоят Қизилтепа туман

1-умумтаълим мактаб тарбия фани ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур маколада ёшларни умуминсоний ва миллий ахлоқ руҳида тарбиялашда бадиий адабиётнинг роли бекиёс эканлигини Навоий асарлари мисолида кўрсатилган. Ёшлар маънавиятини шакллантиришда, уларни баркамол этиб тарбиялашда Навоий маънавий меросининг аҳамияти накида сўз юритилган

Калит сўзлар: Алишер Навоий, маънавият, баркамол шахс, садокат, жонкуярлик, одамийлик

Бугунги кунда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини кенг режа асосида ўрганишга катта аҳамият берилганини умумтаълим мактаб, ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими ва олийгоҳларнинг ўқув дастурларида ҳам кузатиш мумкин.

Чунки улуғ мутафаккир шоирнинг шахсияти ва серкира ижодий мероси барча авлод вакиллари учун битмас-тугамас ибрат манбаидир. Муҳими шундаки, бугун Навоийни англаш ўзликни англаш даражасига айланди. Ёшларимиз мактаб партасидаёқ шоирнинг ҳаёти билан танишиш билан бирга, унинг рубойи ва туюклари, фард ва китъалари, ғазаллари, достонлари ҳамда илмий асарлари билан ҳам яқиндан ошно бўладилар. Ёшларни умуминсоний ва миллий ахлоқ руҳида тарбиялашда бадиий адабиётнинг роли бекиёс эканлигини Навоий асарлари мисолида ҳам кузатиш мақсадга мувофиқдир. Инсон маънавий оламида кўпгина ахлоқий фазилатлар мавжудки, улар кишиларнинг ботиний дунёсида яшайди ва фаолиятида намоён бўлади. Маънавиятнинг жамият ҳаётидаги ўрни ҳақида Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов: “Маънавият – инсоннинг, ҳалқнинг, жамиятнинг, давлатнинг куч-қудратидир. У йўқ жойда ҳеч қачон баҳт-саодат бўлмайди”, - деган эди. Ҳалқ маънавиятини шакллантирумасдан туриб уни бир эзгу мақсад йўлида бирлаштириш мушкул. И.А.Каримовнинг “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида маънавиятни шакллантирувчи асосий мезонлар келтирилган бўлиб, улардан бири аждодларимизнинг маънавий меросидир. Ёшларда ватанга, илмга бўлган мухаббатни тарбиялашда, баркамол шахс қилиб тарбиялашда ҳазрат Мир Алишер Навоий маънавий меросининг ўрни бекиёсдир. Алишер Навоий ўзининг бадиий асарларида баркамол инсон образларини яратиб, унга етишиш йўллари тўғрисида фикрларини ифодалаган бўлса, маърифий асарларида эса бундай инсонни шакллантиришнинг мазмуни, тамойиллари, усул ва услубларини баён этади.

Алишер Навоий ҳар бир инсон ақлли, ахлоқли, билимдон, оқил, доно, соғдил, саховатли, сабр-қаноатли,adolatli, муруватли, камтар, мард ва жасур бўлмоғи лозим, деб билган.

Бугунги кунда ҳалқимиз орасида борига қаноат қилмаслик, шукrona қилмаслик натижасида турли, тезроқ бойлиқ орттириш илинжида турли қинғир йўлларга кираётган ёки бошқа давлатларга кетиб қулга айланаётган лишилар ҳеч кимга сир эмас. Алишер Навоий ўзининг “Маҳбуб ул-қулуб” асарида қаноатни ижобий хислат эканлиги ҳақида шундай ёзади: “Қаноат бир қўрғонки, унга кирсанг нафснинг ғалвасидан кутиласан, қаноат бир чўққики унга чиқсанг дўст душманга мухтоҷлиқдан халос бўласан, қаноат хокисорликдирки натижаси юксаклик, қаноат экинтир уруғи бойлик, қаноат дараҳтдир-меваси хурмат, мухтоҷсизлик, қаноат майдир-аччиқ, лекин нашъаси шодлантирувчи, у йўлдир қаттиқ лекин манзили севинчdir”.

Шунингдек, инсондаги нафс ва унинг балоси ҳақида, нафснинг инсон бошига турли кулфатлар солишига, нафақат ўзининг балки малакат таназзулига ҳам сабабчи бўлишига доир шундай ёзган эди:

То хирсу ҳавас хирмани барбод ўлмас,
То нафсу ҳаво қасри барафтод ўлмас,
То зулму ситам жонға бедод ўлмас,
Эл шод ўлмас, мамлакат обод ўлмас



Инсонлардаги энг қадрли фазилатлардан бири садоқат ва вафо тўғрисида

Алишер Навоий шундай ёзган эди:

Одам-дунёларга тенг шараф эгасидир. Ит эса жирканч махлуқдир Аммо яхшиликни билмайдиган бевафо одам-яхшиликни унутмайдиган, вафодор итдан пастдир.

Бугунги кунда республика таълим тарбия тизимининг долзарб вазифаларидан бири баркамол шахсни тарбиялаб етиштиришдир. Баркамол инсон бу-аввало жамият манфаатини ўз шахсий манфаати билан уйғун кўрувчи, халқ дардини ўз дарди деб билгувчи инсондир.

Инсон ўзлигини англашини ижтимоий муносабатлар асосида кўришни орзу қилган ҳазрат Алишер Навоий буни аниқ қилиб шундай ифода этган эди:

“Одами эрсанг демагил одами - Ониким йўқ халқ ғамидин ғами”.

Маълумки, хар бир инсон ўзлигини англаш орқали ўз миллатини англаш томон ривожланиб боради, чунки миллий ўз-ўзини англаш – кишиларни харакатга келтирувчи ички маънавий – рухий салоҳият ҳисобланади. Бу салоҳият ҳалқаро даражадаги ўзликни англашга, ўз миллатини, ўз маданиятини ва қадриятларни сақлаб қолишга, уларни замон цивилизациясининг ажралмас қисмига айлантиришга интилишини кучайтиради. Республикамиз Президенти Ислом Каримов ўзининг “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида “Бугунги шиддатли даврда чинакам маънавиятли ва маърифатли одамгина ... ўз миллий қадриятларини, миллий ўзлигини англаши, эркин ва озод жамиятда яшаш, мустақил давлатимизнинг жаҳон ҳамжамиятида ўзига муносиб ўрин эгаллаши учун фидойилик билан кураша олиши мумкин” деб таъкидлайди. Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, фарзандларимизни ҳақиқий комил инсон қилиб тарбиялашда, аждодлар ўгитини улар онгига сингдириб борсак мақсадга мувофиқ бўлар эди. Аввало, хар бир халқ ўзининг асрлардан буён синовдан ўтган миллий маданияти ва қадриятларига жиддий эътибор бермас экан, ўсиб келаётган ёшларда миллий ахлоқни шакллантиришга интилиш, ўзликни англаш масаласида кутилган натижаларга эришиб бўлмайди. Шундай экан, бу борада Алишер Навоий каби мумтоз шоирларимизнинг бой меросига таяниш зарур деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.А.Каримовнинг “Юксак маънавият-енгилмас куч” Т.: “Ўзбекистон” 2008.
2. Alisher Navoiy. Hikmatlar. T., O‘zbekiston. 2011, -B.345
3. Алишер Навоий. Асарлар, 15 жилдлик, 15-жилд. Т.: “Бадиий адабиёт” 1966.
4. Н.Маллаев. “Ўзбек адабиёти тарихи” Т.: “Ўқитувчи” 1976



ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ В ПЕРИОД ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ

Полещук Наталья Валерьевна,
Учитель начальных классов школы №18, г.Навои

Аннотация: Данная статья затрагивает проблемы повышения речевой культуры учащихся. Известно, что одним из показателей уровня культуры, мышления, интеллекта человека является его речь, которая должна соответствовать языковым нормам. Именно в начальной школе дети начинают овладевать нормами устного и письменного литературного языка, учатся использовать языковые средства в разных условиях общения в соответствии с целями и задачами речи.

Ключевые слова: речь, речевая деятельность, начальное образование, культура речи.

Одним из важнейших показателей уровня культуры мышления, интеллекта человека является его речь. Возникнув впервые в раннем детстве в виде отдельных слов, не имеющих ещё чёткого грамматического оформления, речь постепенно обогащается и усложняется. Ребёнок овладевает фонетическим строем и лексикой, практически усваивает закономерности изменения слов (склонение, спряжение и пр.) и их сочетания, логику и композицию высказываний, овладевает диалогом и монологом, различными жанрами и стилями, развивается меткость и выразительность его речи. Всем этим богатством ребёнок овладевает не пассивно, а активно - в процессе своей речевой практики.

Хорошо развитая речь служит одним из важнейших средств активной деятельности человека в современном обществе, а для школьника - залогом успешного обучения в школе. Современная программа предъявляет высокие требования к речевому развитию школьников.

Первое требование — это содержательность. Содержание для бесед, для рассказов, письменных сочинений дают книги, картины, экскурсии, походы, специальные наблюдения, собственные размышления, переживания - вся окружающая ребенка жизнь. Учитель помогает младшим школьникам подготовить накопленный материал, отобрать его в соответствии с ясно выраженной темой.

Вторым требованием к речи является логика речи: последовательность, обоснованность изложения, отсутствие пропусков и повторений, отсутствие чего-либо лишнего, не относящегося к теме, наличие выводов, вытекающих из содержания. Логически правильная речь предполагает обоснованность выводов, умение не только начать, но и завершить высказывание.

Третье требование - точность речи - предполагает умение говорящего или пишущего не просто передать факты, наблюдения, чувства в соответствии с действительностью, но и выбрать для этой цели наилучшие языковые средства - такие слова, словосочетания, фразеологические единицы, предложения, которые передают все признаки, присущие изображаемому.

Развитие речи в младших классах осуществляется в первую очередь на уроках родного языка. Овладение речью идет одновременно в нескольких направлениях: по линии развития звуко-ритмической, интонационной стороны речи, по линии овладения грамматическим строем, по линии развития лексики, по линии все большего и большего осознания учащимися собственной речевой деятельности.

При такой организации обучения в центре оказывается самая важная функция языка - коммуникативная. Раскрыть коммуникативную функцию языка для ребенка значит научить его планировать, высказывать свои замыслы языковыми средствами, предвидеть возможные реакции участника общения, контролировать свою речевую деятельность.

Конечно, в начальной школе ребенок только осваивает письменную речь как средство коммуникации и самовыражения, ему еще трудно соотносить контроль за написанием букв, слов и выражением своих мыслей. Однако ему представляется возможность сочинять. Это самостоятельная творческая работа, которая требует готовности понять заданную тему; определить ее содержание; накапливать ее содержание; накапливать, подбирать материал, выделять главное; излагать материал в необходимой последовательности; составлять план



и придерживаться его, отбирать нужные слова, антонимы, синонимы и фразеологизмы.

В развитии речи нужна долгая кропотливая работа учащихся и учителя. Временные неудачи срывы не должны пугать. Систематическая работа по развитию речи обязательно даст плоды. Речевые умения и навыки развиваются по законам геометрической прогрессии: малый успех приводит к большему - речь совершенствуется и обогащается.

Список использованной литературы:

Указы Президента Республики Узбекистан:

1. Мирзиев Ш.М. «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук Республики Узбекистан» №263-1 2016.12.29.

2. Каримов И.А. «Идея национальной независимости: основы понятия и принципы». – Ташкент: Узбекистон, 2006.

Специальная литература:

1. Богуславская Н.Е., Капинос В.И, Купалова А.Ю. Методика развития речи на уроках русского языка. – М.: Просвещение, 1991.

2. Бойко А.И. Краткий курс логики. М.: Издательский центр, 1995.

3. Данилова Н.Н. Физиология высшей нервной деятельности. Серия «Учебники и учебные пособия». – Ростов н/Д: «Феникс», 2001.

4. И.В. Дубровина, Е.Е. Данилова; под ред. И.В. Дубровиной. Психокоррекционная и развивающая работа с детьми: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений– 2-е изд., стереотип. – М.: Академия, 1999.



ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Содикова Гулбарно Одилжон қизи
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
таянч доктарант
Телефон: +9989998328512
gulbarno92@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада қарор қабул қилиш муаммоси тадқиқ этилган бўлиб, қарор қабул қилиш жараёнинг психологик жиҳатлари, илмий-назарий асослари тадқиқ этилган ва тегишли хуносалар чиқарилган.

Калит сўзлар: Қарор қабул қилиш, психологик хусусиятлар, психологик классификация.

Қарор қабул қилиш жараёни психологияда бир қатор ёндашувлар асосида тушунтиришга ҳаракат қилинади.

Қарор қабул қилиш - бу фикрлаш жараёни ҳисобланиб, ҳаракатларнинг мақсади ва усули тўғрисида олдиндан хабардор бўлиш, турли хил муқобил варианatlарни ўрганишдан иборат. Ушбу жараённинг энг муҳим хусусияти унинг иродали феъл-атвори ҳисобланади. Қарор қабул қилиш жараёнида инсоннинг дунёқараши, қизиқишлари, билимлари интеграциялашади. Қарор ижтимоий ҳодисадир, уни ҳар доим бир ёки бир нечта шахс қабул килади. Қарор қабул қилиш жараёни муаммоли вазиятнинг пайдо бўлиши билан бошланади ва ечимни танлаш керак бўлган ҳаракатлар билан якунланди[1].

Қарор қабул қилиш - бу танлов, ихтиёрий ҳаракат ва фаол мураккаб жараён: инсоний фаолиятнинг маҳсус, ўзига хос, ҳаётӣ жараёни, қиймат кўрсаткичлари, ноаниқлик ва альтернатив вазиятларининг мавжудлиги билан тавсифланади ва ишонтириш, таъкидлаш, хулқ-атвор каби энг яхши варианtlарини танлашга қаратилган [2]. Қабул қилинган қарорлар уларнинг мураккаблик даражасининг мезонларига кўра классификация қилинади [3].

Қарор-бу бажарилиши лозим бўлган ишнинг аниқ бир йўлини танлаб олишdir. Бошқача қилиб айтганда, қарор-бу у ёки бу йўлни танлаб олишда бир тўхтамга ёки муайян бир фикрга келишdir. Ёки бошқача айтганда қарор бу - муқобил (альтернатив) танловdir. Бундай қарорларни ҳар биримиз бир кунда ўнлаб-юзлаб, бир умр давомида эса мингминглаб қабул қиласиз. Масалан, таълим олиш, касб танлаш, дўст танлаш, бўш вақтини мазмунли ташкил қилиш, тиббий ёрдам ва соғлиққа таъсир қилувчи одатлар юзасидан бўлиши мумкин. Бундай мисолларни кўплаб келтиришимиз мумкин. Айрим пайтларда эса жуда аниқ бўлган қарорларни қабул қилиш учун жуда кўп вақт сарфланади, чунки бунда қандайдир тушунтириш қийин бўлган психологик омиллар қарорларни тезлиқда қабул қилишга халақит беради.

Қарор қабул қилиш жараёнининг психологик классификациясини маҳаллий ва замонавий адабиётларда индивидуал-психологик жиҳатлари ёритиб берилган. Психологияда қарор қабул қилишнинг дастлабки тадқиқотлари даража, мақсад ва воситалар билан боғлиқ бўлган вазифалар, ахборотнинг тузилиши ва танлов вазиятини классификациялаш билан бошқарилади. Й.Козелецкий очиқ ва ёпиқ муаммоли вазиятларини ва “муаммоларни ҳал қилиш” шароитида тафаккурни ҳаракатерловчи бошқа кўринишлари, шунингдек, фикрлашга доир вазиятларни ечишни ўз зиммасига олди. Очиқ вазиятлар муаллифнинг терминалогиясига биноан “жами” ноаниқлик билан тавсифланади: уларнинг обьект ҳолати ёки натижалар қиймати ҳақида кўплаб ҳаракат ёки фаразлар мавжуд. Шу муносабат билан, қарор қабул қилишда шахс номаълум обьектнинг ҳолати ҳақида дастлабки мустақил фикрларини ифодалashi керак. Ёпиқ вазифалар “қарор қабул қилиш” жараёни субъект танлови бўлиб, бу мезонларга номаълумлик шароити ёки “тўғри” ечимнинг йўқлиги сабаб бўлади [4].

Қарор қабул қилиш нуқтаи назаридан, танлов ё қарор қабул қилишнинг мустақил шакли сифатида, ё ечим қабул қилиш тузилмасининг бир элементи сифатида кўриб чиқилади. “Танлов” тушунчасининг турлиқ талқин қилинишига қарамай, кўпинча унинг тавсифи одий танлов характеристикасига ўхшатилади, бу Ю. Козелецкий, Ю. Н. Кулюткин, И. Г. Скотникова, П. Скотт, Г. Н. Солнцева ва бошқаларнинг ишларида акс этган [5].



Д.А. Леонтьев ва Н.В.Пилипко танлов қўринишини учта турни ажратиб кўрсатишади:

-содда танлов энг оддий танлов қўриниши сифатида қаралади, субъектга таниш бўлган бир қатор альтернатив вазиятларни таққослайди, аммо бу мезон аниқ шаклланмаган. Танловнинг маъноси шундаки, маълум бир натижага эришиш билан боғлиқ фаолиятни амалга оширишнинг оптимал усулини аниқлашдан иборат. Бу ҳолатда субъектнинг вазифаси, берилган мезонга мос келадиган энг альтернативаларни аниқлаш;

- семантик танлов-энг мураккаб танлов қўриниши бўлиб, муқобил вариант мезонларни таққослаш учун дастлаб берилмаган ва синлавчининг ўзи уларни тузиши лозим бўлади (касл танлаш, турмуш ўртоғини танлаш, товарларни танлаш ва бошқалар). Субъект турли муқобил вариантларни солиштириш учун умумий асосларни топиши ва уларни баҳолаш учун мезонларни шакллантириши керак, муқобил вариантга нисбатан муносабат бир ёки бир нечта маънога эга бўлади;

- шахсий, ёки экзистенциал танлов. Шахс вазиятларда муҳим бўлган ҳаётий танловларни, қарорларни қабул қиласди. Бунда субъектга на альтернативанинг ўзи, на уни таққослаш мезонлари берилмайди. У ўзи бу альтернативаларни танловнинг бўлгуси натижалари билан биргаликда тузиши керак бўлади, ҳамда танланган альтернативани амалга ошириш имкониятларини таҳлил қилиш асосида ўз танловига эга бўлади. Бу мумкин бўлган айни дамдаги “келажакдаги” танловлардан биридир [6].

В.В.Дружинин ва Д.С.Конторов психолог олимлар эса ечимларни қизиқарли классификациясини таклиф қилишган [7]. Улар уч турдаги вазият ва уларга мос бўлган қарор қабул қилиш турларини кўрсатадилар: ахборот ечимлари – вазиятни ўзини диагностика қилишга йўналтирилган (саволга жавоб: “ҳақиқат нима?”); оператив ечимлар, пайдо бўлган вазиятга тезкор жавоб қайтариш (“қандай ҳаракат қилиш керак?”) саволига жавоб беришга ёрдам беради); ташкилий ечимлар – тизим конфигурацияси вариантларни излашни таъминлайди (“тизим қандай бўлиши керак ва унда функциялар қандай тақсимланиши керак?” деган саволга жавоб беради). Уни ташкил қилувчи элементларнинг таркиби ҳамда алоқаси бўйича мураккаброғи ахборот ечимлари ҳисобланади — бу нима бўлаётгани ёки бўлиши мумкинлигини акс эттиради (ўзига хос модель). Муаллифларнинг фикрича, мураккаб юқори ташкил этилган тизимларни лойиҳалаштириш бўйича мутахассислар, бу аниқ ечим эмас, субъект томонидан шакллантирилган тасаввурлар, улар маҳсулдор, ижодий ҳарактер, гипотеза тизими курилиши, ечимнинг альтернатив вариантлар тўплами, уларни амалга ошириш йўли билан ҳарактерланади.

Қарорлар варианларидан бирини танлаш шахс хусусиятларига ҳам боғлиқ. Қарор қабул қилувчи шахснинг типологик, ижтимоий психологик хусусиятлари қарор қабул қилиш жараёнида ўз таъсирини кўрсатади. Масалан, шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларидан бири – темперамент ҳам ўз таъсирини ўтказади. Маълумки, сангвиник ва холерик раҳбарлар қарор қабул қилишда шошишади, флегматик ва меланхолик раҳбарлар эса шошишмайди. Шу нуктаи назардан қарорлар ҳам бир-биридан фарқланади:

1. Босиқлик билан чиқариладиган қарорлар – ўз хатти-ҳаракатларига эътибор ва танқидий назар қаратилади. Фоя олдиндан шакллантирилади.

2. Импульсив қарорлар – жуда кўп гоялар ишлаб чиқарилади. Уларни текшириб кўриш имкониятий йўқ.

3. Инерт қарорлар – эҳтиёт чоралари кўрилган ҳолда чиқариладиган қарорлар. Ҳоялар кам. Барчаси текширилади. Ижодкорлик йўқ.

4. Таваккал чиқариладиган қарорлар – муаллифлар хавфдан кўрқишмайди.

5. Эҳтиёт бўлиб чиқариладиган қарорлар – барча варианлар мукаммал ҳолда текшириб кўрилади. Ўта танқидий ёндашув. Янгиликлар деярли йўқ.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, таъкидлаш мумкинки, ҳозиргача бошқарув психологияси фанида ягона умумлаштирувчи психологик қарорлар қабул қилиш назарияси мавжуд эмас, бироқ қарор қабул қилиш шароитида одамларнинг хулқ-авторини тавсифловчи ва изоҳлайдиган вазиятлар ишлаб чиқилган. Ушбу масалани кўриб чиқишда психология ва унга оид фанларда тўпланган барча маълумотларни, уларнинг ҳаётий ва илмий тажрибасини синааб кўриш талаб этилади.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Диев В.С. От “рационального” к “социальному” в принятии решений // Вестн. Новосиб. Гос.ун-та. Серия: Философия, 2009. Т.7, вып. 2. С. 41-46
2. Брюхова Н.Г. Нравственно-психологические аспекты принятия руководителем организационного решения // Инновационная наука, 2016. №3-3, С. 200-201
3. Брюхова Н. Г. Влияние самопонимания на принятие решений юношами и девушками: Автореф.Дисс...канд.пси.наук- Астрахань, 2007. –С. 155
4. Козелецкий Ю. Психологическая теория решение // Юзеф Козлецкий; пер.с польск. Г.В.Минца и В.Н.Поруса. Послесловие Б.В.Бирюкова и О.К. Тихомирова.-М.: Прогресс, 2000.-С. 504
5. Солнцева Г. Н. О психологическом содержании понятия риск / Г. Н. Солнцева // Вестник МГУ. Сер. 14. Психология. - 2006. - Т. 2. - С. 14-21
6. Леонтьев Д. А. Выбор как деятельность: личностные детерминанты и возможности формирования / Д. А. Леонтьев, Н. В. Пилипко // Вопросы психологии. - 2000. - № 1. –С. 97-110
7. Дружинин В. В. Введение в теорию конфликта: монография // - М. :2004. –С. 288.



ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Исмаилова Шамсия Курултаевна
Урганч давлат университети доценти,
+998(93)5530081;
shamsiya2021@mail.ru

Исмоилова Хайринисо
Хоразм вилояти, Урганч шаҳри
1 сон умумий ўрта таълим мактаби
информатика ва А Т фани ўқитувчisi
+998(91)9143404
khayriniso@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада ахборот технологияларининг таълимий имкониятлари ҳақида фикр билдирилган. Хусусан, масофавий таълимни ташкил қилишнинг дидактик жиҳатлари, телеконференцияларни ташкил қилишнинг услубий масалалари ҳақида таҳлилий маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: ахборот компьютер технологиялари, масофавий таълим, телеконференцияларни ташкил қилиш, эркин мулоқот, интерфаол услублар.

Жамиятимизда ахборот технологияларини ривожлантиришга, айниқса, ёшлар компьютер саводхонлигини оширишга, “Бир миллион дастурчи” лойиҳаси доирасида мактаб давриданоқ ёшларнинг компьютер технологиялари бўйича дастурий билим, кўникма ва мамлакатларини такомиллаштириш, еткачи компетенцияларини ривожлантиришга қаратилган тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Эндиликда ўқувчиларни мактаб давриданоқ ахборот технологияларига қизиқтириб, келгусида тизимда кадрлар захирасини шакллантириш, талабигир соҳа мутахассиларини тайёрлаш ижтимоий долзарб вазифа хисобланади. Республикамиз ҳудудларда ахборот коммуникация технологияларига ихтисослашган таянч мактаблар очила бошланди.

Ҳозирги кунда ахборот технологиялари хизматлари жадал суръатлар билан кенгайиб бормоқда. Интернет тармоғи нуқтаи назаридан бутун жаҳон компьютер телекоммуникацияси тармокларига бирлашди. Интернет хизматлари тараққий қилиши натижасида мамлакатлар, қитъалар рамзий маънода ўз чегараларини йўқотди. Янгидан янги ахборотлар олиш имкониятлари кенгайиб бормоқда. Бугун компьютер олдига бориб, истаган мамлакатингизга ташриф буюришингиз, хоҳлаган ҳажмда маълумотлар, ахборотлар олишингиз, савол бериб, шу заҳоти жавоб олишингиз учун мисли кўрилмаган имкониятлар мавжуд. Айнан ахборот технологиялари хизматлари орқали инсоният тафаккури кенгайиб, билимлар ошиб бормоқда.

Айниқса, пандемия шароитида масофавий таълимга бўлган эҳтиёж педагогик жараён иштирокчилари, ўқитувчилар ва ўқувчилар ахборот коммуникация бўйича билим ва мамлакатарининг кенгайишига сабаб бўлди.

Ахборот технологиялари улкан таълимий имкониятларга эга. Бу биринчи навбатда мулоқот услугига асосланган интерфаол хизматлардир, яъни электрон почта ва электрон конференциялардир. Электрон почта абоненти бўлиш орқали дунёнинг электрон почталари билан хат алмашиб имкониятини кенгайтириди. Бундан ташқари Telegram мессенжери ёки электрон почта орқали турли мавзуларда конференция материаллари жўнатиш ва қабул қилиб олиш мумкин.

Интернет орқали ахборотларни қабул қилиш бевосита, яъни компьютердан компьютерга-синхрон алоқа ва билвосита, яъни оралиқ электрон хисоблаш машинасининг ахборотларни қабул қилиши ва шахсий компьютер талаби билан узатиш-асинхрон алоқа орқали амалга оширилиши мумкин.

Синхрон телекоммуникацияни амалга ошириш учун томонлар алоқа қилиш вақти, муҳокамага қўйиладиган саволлар тўғрисида олдиндан келишиб олишлари мумкин. Электрон почта ахборотларни тезкорлик билан абонентларга етказиб беришда жуда қулай во-



сита хисобланади.

Ахборотларни етказиб бериш тезкорлиги икки омилга: ахборотларни сизнинг компьютерингиздан шеригингиз компьютерига етиб келиш муддати ва шеригингизнинг ўз электрон почтасига ёки Telegram мессенжерига қачон мурожаат қилишига боғлик. Бу имкониятлардан фойдаланиш орқали бир корхона, ўқув муассасаси худудидаги ёки сайёрамизнинг турли барчакларидағи абонентлар бир-бирлари билан алоқа қила олишлари, телеконференциялар орқали эркин мuloқotта киришиш мумкин.

Телеконференциялар учун одатда ёзма мунозаралар ташкил килинади. Ҳозирги вақтда интернет орқали амалга ошиши мумкин бўлган электрон конференцияларнинг икки тури мавжуд:

-реал конференциялар, яъни бир вакт бирликларида катнашчиларнинг бир-бири билан товуш ёки видеотасвир орқали мuloқot қилиши;

-турли вақт бирликларида ўтказилиши мумкин бўлган конференциялар.

Конференциялар «очиқ», яъни тармоқнинг хоҳлаган абоненти кириши мумкин бўлган холда ўтказилиши ва «ёпиқ», яъни фақат анжуманни бошқарувчи модератор ва тадбир учун танланган ва модератор томонидан таклиф қилинган қатнашувчилар контингентигина кириши мумкин бўлган холда ўтказилади.

Шунингдек, телеконференциялар чексиз таълимий аҳамиятга эга. Биринчи навбатда бу чексиз мuloқot қилиш имкониятидир. Конференциянинг муваффақиятли ўтиши модератор маҳоратига хам боғлик. У катнашувчиларга саволлар бериб, конференцияни бошқариб боради. Таълим масалалари бўйича мунозаралар ташкил қилиш, бир гуруҳ олим ва ўқувчилар, талабалар ўртасида электрон мuloқotлар ўтказиш мумкин.

Телеконференцияларнинг дидактик имкониятлари қуйидагилардан иборат:

- илмий-методик мавзууларда тезкор маслаҳатлар ташкил қилиш;

-масофавий таълим тармоқларининг яратилиши натижасида таълимнинг турли шаклларини ташкил қилиш;

-педагоглар малакасини ошириш имкониятларини кенгайтириш;

-ахборотлар, ғоялар, режалар билан тезкор алмашиш, қўшма лойиҳалар яратиш ва бу нинг натижасида инсон дунёқарашининг кенгайиши, маданий савиясининг ошиши;

-ҳамкорингиз ким бўлишидан қатъий назар мuloқotта киришиш, мuloқot маданиятини шакллантириш, фикрлар теранлигига эришиш;

-модератор сифатида мунозаралар ташкил қилиш;

-ҳамкорлар фикрини тинглаш ва қабул қилиш, хурмат этиш;

-тадқиқотчилик фаолияти билан шуғулланиш, илмий лабораториялар, ижодий устахоналар фаолияти билан танишиш ва унда иштирок қилиш;

-турли манбалардан ахборот излаш кўнимкамларини ривожлантириш, таҳлил қилиш ва интернет орқали узатиш.

Телеконференциялар таълим ва тафаккур ривожига хизмат қилувчи буюк қуролдир. У ўқувчиларнинг маданий, маънавий, интеллектуал юксалишга хизмат қиласди, чет тилларини ўрганишга туртки бўлади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Тожибоева Д. Махсус фанларни ўқитиши методикаси.-Т.: Фан ва технолгия. 2007.-541 бет.
2. D.Tojiboeva, Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik.-T.: Aloqachi, 2009.-568 bet.
3. Файзуллаева Д. Мутахассислик фанларини ўқитиши методикаси.- Т.: Иқтисодиёт, 2013.
4. Хўжаева Н., Хасанбоеv Ж., Мамажонов И., Мусахонова Г. Янги педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма.-Т.: ТДИУ, 2007.-180 б.



ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ЭЛЕКТРОНИКИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Бердиханова Г.Н., студентка бакалавриата НГПИ им. Ажинияза
Шарафатдинова А.Н., студентка бакалавриата НГПИ им. Ажинияза
Sharafatdinovaaysultan@gmail.com +998938489811
gukalinaberdihanova@gmail.com +998 91 378 8818

Аннотация: Статья психолого-педагогического направления посвящена проблемам профессионального образования и раскрывает ряд современных часто встречающихся проблем.

Ключевые слова: цифровые века, психо-физиологические аспекты, семья, профессиональное образование

Мы не можем себе представить процесс обучения в XXI веке без цифровых эдайсов. Обучать деток дошкольного возраста легче и удобней с помощью развивающих программ по телевизору или другой аппаратуре. Дети постарше тоже учатся и исследуют мир по цифровому методу.

Учащимся любого возраста интересен мир полный декораций и иллюстраций бегающих по экрану и развивающих воображение ребёнка. Учителю следует рассчитывать психо-физиологические аспекты учащегося и вырабатывать у него стимул к чтению книг.

Последнее время не многие интересуются распечатанными книгами, газетами и журналами, большинство выбирает электронный формат. Читают новости с браузеров и в соцсетях. Так что бороться с этим недугом становится гораздо тяжелее. Конечно, спорить с тем, что это очень удобно и быстро не получится, так как легче ввести интересующую информацию или название книги, вуяля, готово, нежели искать и тратить драгоценное время на поиски и ходьбу в книжный киоск.

Пандемия ковида-19 тоже ввела свой вклад в развитие дистанционного обучения школьников и студентов. Появилось множество программ по дистанционному обучению школьной программы и программ высших учебных заведений. Весь интерес занял процесс образования на любой дистанции. И здесь не возможен процесс воспитания. Только если не воспитание внутри семьи.

Семья – это, конечно же, первый эталон поведения и самый эффективный. Поэтому можно смело заявить о преимуществах и недостатках дистанционного обучения, где отношения внутри семьи в этот момент становятся более благоприятными и крепкими.

Посидеть дома и поспать или вздрогнуть – это, естественно, приятно, но как же здесь преподавателю или наставнику воспитывать аудиторию?

По нашему мнению, в цифровой мир необходимо ввести ряд программ по развитию нравственных представлений. К примеру, развлекательные роли о культуре народов разных стран, об их традициях, религии и красоте их природы.

Современному профессиональному образованию присущ ряд актуальных проблем, которые охватывают весь воспитательно-образовательный процесс в новых социально – экономических условиях. Решение этих проблем будет способствовать повышению качества подготовки рабочих кадров и роста престижа рабочей профессии.

В настоящее время отсутствует оперативная и унифицированная методика анализа рынка труда, позволяющая планировать объём и профиль подготовки квалифицированных рабочих, служащих и специалистов среднего звена.

Понятие «профессиональное воспитание» вошло в ряд активно используемых категорий в последнее десятилетие XX века. Постепенно оно заняло одну из ведущих позиций при решении проблем, связанных с организацией воспитательной работы в вузе. Тем не менее, в научной литературе до конца не обозначена сущность понятия «профессиональное воспитание», не выяснены причины и факторы его развития. В данной статье конкретизируется сущность, механизм и единица измерения профессионального воспитания, выделяются его системообразующие качества и движущие силы. Также рассматривается проблема качественных изменений, которые вносит появившаяся категория в систему подготовки специалиста.



Большинством исследователей профессиональное воспитание рассматривается как развитие профессиональных компетентностей или профессиональная культура. С точки зрения Репринцева А.В. профессиональная воспитанность включает: развитость личности, чувство ответственности, степень обученности, степень мобильности психических процессов и индивидуальных качеств, выраженную социальную активность и готовность к нравственно-эстетической деятельности. В работе Байчекуевой Н.Х. профессиональная воспитанность расширяется до профессиональной культуры. В большинстве работ «профессиональное воспитание», включает в себя обобщенный набор профессиональных компетентностей. Между тем, если следовать данной логике, то овладение профессией есть не средство воспитания, а его содержание. Такая трактовка нивелирует понятие «воспитание» и не показывает, в чем состоит специфика воспитания в студенческом возрасте, какое место оно занимает в общем процессе воспитания. Для ответа на эти вопросы, прежде всего, необходимо обратиться к категории «воспитание», которая в последнее время подвергается переосмыслению.

Библиографический список

1. Огольцова Е.Г., Тлеугабылова К.С., Воронина К.А., Рахматуллина Д.Т., Каримова Л.Д. ПРОБЛЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ // Успехи современного естествознания. – 2014. – № 5-2. – С. 150-155
2. Аванесов В. Куда ведут реформы образования // Народное образование. 2001. № 5. С. 26 – 32.
3. Белкин А.С. Основы возрастной педагогики: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2000. - 192 с.
4. Дёмин В. М. Доступность, качество и эффективность – основа образовательной политики России // Специалист. 2002. № 1. С. 2 – 5.



БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ НУТҚ РАВОНЛИГИНИ ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ

Миртурсунова Дилрабо Тўлагановна

Мирзаева Умида Нурхуджаевна

Зангига туманидаги 42-мактабнинг

бошлангич синф ўқитувчилари

Аннотация: Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Конуни амалиётга кенг жорий қилинмоқда. Мамлакатимиз халқ таълими тизимида ҳам чуқур ислоҳатлар ўтказишга кенг имконият берилди. Ушбу ислоҳатлардан бири ўқувчиларнинг нутқ маданиятини ривожлантиришга эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: Нутқ равонлиги, талаффуз, имловий луғат, нутқни ривожлантириш, мантиқий фикр.

Бошлангич синфларда ўқувчиларнинг оғзаки нутқини ўстириши режали ташкил этилса, бу соҳадаги тадбирлар мунтазам равишда амалга ошириб борилсагина у ўқувчининг ҳиссиётига, тасаввурига, иродага ва характерига, ниҳоят фикрлаш фаолияти ва қобилиятига таъсир этиб нутқнинг равон ифодали бўлишида муҳим аҳамият касб этади. Шу йўл билан нутқ малакаларини ривожлантириш орқали, уларда тўғри сўзлаш ва аниқ, мантиқий фикр ифодалаш салоҳияти шаклланиб боради. Уларнинг ижодий фаолияти ва истеъоддларини ривожлантириб рўёбга чиқаради. Ўқитувчи ўқувчиларнинг оғзаки нутқини ўстириш учун барча машғулотларда уларнинг луғат бойликларини аниқ мақсадга йўналтирилган режа асосида сўзларни нутқда фаол қўллашга ўргатиш орқали мустаҳкамлаб бориш керак. Ўқувчилар етарли сўз бойлигига эга бўлмасдан туриб аниқ ва равон фикр юрита олмайдилар. Ўргатилган ҳар бир янги сўз ўқувчиларнинг сўз захирасини оширади, фикр ифодалаш имкониятларини кенгайтиради. Шунинг учун ҳам ўқувчилар билан сўз ва унинг маъноларини эгаллаш устида узлуксиз иш олиб бориш лозим. Бунда синоним сўзларни доимий равишида тадрижий тарзда ўқувчининг нутқига сингдириш алоҳида аҳамиятга эга. [1]

Нутқ маҳорати бу оддий нутқ эмас, балки фикрни содда ва чиройли ифода эта олишдир. Бу борада “Сўзни сақлаб сўзлаганлар хўб билур сўз қадрини, фарқи йўқ, кўп сўзлаганлар на билур ўз қадрини” хикматини келтириш ўринли. “Қобуснома” да шундай ёзилади: “...*Тилингни яхии ҳунар била ўргатгил ва мулойим сўздин бошқа нарсани одат қилмагил. Нединким, тилга ҳар нечук сўзни ўргатсанг, шуни айтур, сўзни ўз жойида ишилатгил, аммо ноўрин ишилатилса, гарчанд у ҳар нечук яхии сўз бўлса ҳам ёмон, нобоп эшиштилур. Шунинг учун бехуда сўзламагилки, фойдасиздур...*” (Кайковус. XI аср). Нутқнинг тўғрилиги, аниқлиги, мантиқийлиги, қисқалиги, соддалиги, софлиги, бойлиги, жўялилиги, таъсирчанлиги, образлилиги, равонлиги унинг хусусиятлари бўлса, иккинчиси овоз, нафас, дикция, интонация, оҳанг, урғу, тўхтам, овоз тембри ва ҳоказолар нутқ техникасидир.

• Товушларни тўғри талаффуз этиш ва сўзниг товуш таркиби ҳақидаги тасаввурларини аниқлаш ва шакллантириш

- Унли ва ундош товушлар ҳақида тушунча бериш.
- Жарангли ва жарангсиз товушларни ажратишга ўргатиш асосида фонематик идрокни ва тасаввурни ривожлантириш

• Оддий таҳлил ва синтез қилиш қўнималарини ривожлантириш:

- гапни сўзларга бўлиш, сўзларни бўғинларга бўлиш;
- маълум товушларни ўрнини аниқлаш (сўзниг бошида, ўртасида ва охирида);
- сўзда товушлар кетма-кетлигини ва сонини аниқлаш;
- товушлардан бўғинлар, сўзлар тузишга ўргатиш; [2,3]

Ўқувчиларнинг нутки тўғри шаклланиши учун асосан бошлангич синфда эътибор қаратилади ва у юқори синфга ўтганида тўлалигича такомиллашади. Нутқ ўқувчининг тил воситалари асосида тафаккурини ривожлантиради. Нутқ ўзаро алоқа ва хабар функциясини, ўз фикрини ҳис-ҳаяжон билан ифодалаш ва бошқаларга таъсир этиш вазифасини бажаради. Яхши ривожланган нутқ жамиятда ўқувчининг актив фаолиятининг муҳим воситаларидан биридир, ўқувчи учун эса нутқ мактабда муваффакиятли таълим олиш қуролидир. Нутқнинг тўғрилиги, деганда, даставвал, унинг адабий тил меъёрларига мос келиши тушунилади.



Нутқнинг тўғрилиги ҳақида фикр билдира туриб, В.Г.Костомаров шундай ёзади: “Нутқ маданиятининг зарур ва биринчи шарти сифатида адабий тилнинг маълум пайтда қабул қилинган нормасига қатъий ва аниқ мувофиқ келишини, унинг талаффуз, имловий луғат ва грамматик нормаларини эгаллашни тушуниш лозим булади”.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, мактабда ўқитишнинг дастлабки йилларида ўқувчиларнинг оғзаки нутқи уларнинг ёзма нутқига нисбатан тўлароқ шаклланган бўлиб, ўқитиш жараёнида алоҳида аҳамият касб этади. Ўқиши ва ёзиш ўқувчилар учун ўрганишнинг маҳсус шакли бўлиб қолади. Кейинчалик эса улар ўқувчилар учун билимларни ўзлаштиришда бир хил аҳамият касб этади. Савод ўргатиш жараёнида ҳар томонлама баркамол, эркин фикрлайдиган шахсларни тарбиялаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланган мавжуд шароитда ўқувчилар нутқини ривожлантириш алоҳида аҳамият касб этади. Бошланғич таълимда нутқ ўстириш муаммоси доимо диққат марказида бўлиши лозим. Дидақтик ўйинларни ташкил қилиш орқали ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини ўстиришга эришилади. Ўқувчиларнинг нутқини ўстиришда дидақтик ўйинларнинг ташкил этилиши ўринлидир. Чунки ўйинли дарс ўқувчилар учун қизиқарли ва севимлидир. Шу ўйинлар туфайли ўқувчи энг аввало мактабга, дарсга қатнашга қизиқувчан бўлади. Бундан ташқари, ҳар бир дарсда жавоб беришга харакат қиласидиган, пухта фикрлаб сўнгра сўзлайдиган, ўқитувчи томонидан етказиладиган ҳар бир фикрга ўта эътиборли ва ўзгарувчан бўлиб боради. Ҳар томонлама баркамол, эркин фикрлайдиган шахсларни тарбиялаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланган мавжуд шароитда ўқувчилар нутқини ривожлантириш алоҳида аҳамият касб этади. Нутқни ривожлантириш шахсни шакллантиришнинг зарурый шартига айланади. Шундай экан, бошланғич таълимда нутқ ўстириш муаммоси доимо диққат марказида бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмаджонова М. Э., Бошланғич синф ўқувчиларини оғзаки ва ёзма нутқини ўстириш тизими. -Т.:2017.
2. Фуломов А, ҚобиловаБ., Нутқ ўстириш машғулотлари.- Т.:1999.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. - Т.: 2003.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000